

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 43 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

1. Каримова Хилола Мирзамахмудовна СИНТАКТИК ТАКРОРЛАРНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИГА ХОС ЖИХАТЛАР	7
2. Mahmudova Dilnoza Mirsoat kizi STUDYING MEDICAL STUDENTS PROFESSIONALLY ORIENTED ENGLISH.....	9
3. Jalilova Zebuniso Esanovna BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH	11
4. Ниёзова Шафоат Муроджон кизи ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФЛОРИСТИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ.....	13
5. Saparova Qunduz Otaboyevna TILDA UMUMINSONIY, MILLIY VA IJTIMOY GURUH MADANIYATINING AKSI MUAMMOSI.....	15
6. Sattarova Odina Mamadaminovna MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI IJTIMOY MUNOSABATGA TAYYORLASHDA O'YINCHOQLAR VA O'YINLARNING AHAMIYATI	17
7. Shodmonova Shaxlo Mirodil qizi AMALIY PSIXOLOGNING OTA-ONALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	19
8. Vafqulova Go'zal Ochilovna ONA TILI DARSLARIDA OMONIM SO'ZLARNI O'QITISHDA QO'LLANUVCHI METODLAR	21
9. М.О. Носирова РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И АНТИЦЕННОСТЕЙ В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦАХ.....	24
10. Baxtiyorova Dinora HOW TO INTEGRATE STEAM IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM.....	26
11. Karimova Khalima Po'latvoy qizi PRAGMATIC ANALYSIS OF STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK TEACHING METHOD.....	28
12. Ishqobilova Hulkar Shaydulla qizi MILLIY QADRIYATNI IFODALOVCHI "OILA" LEKSEMASINING LUG'ATLARDA IFODALANISHI	30
13. Ishqobilova Hulkar Shaydulla qizi MILLIY QADRIYATLARNI IFODALOVCHI "ANDISHA" LEKSEMASI VA UNING ASARDA IFODALANISHI.....	31
14. Mahmudova Roziya Furqat qizi SINONIM SO'ZLARINING NUTQNI BOYITISHDAGI O'RNI	33
15. Ibragimova Nodira Javliyevna SURXONDARYO VOHASI GILAMCHILIK ATAMALARINING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI	35
16. Ro'zimurodova Norbibi SALIM ASHUR IJODIDA MILLIY VATANPARVARLIK RUHINING AKS ETISHI	37
17. Махаммаджанова Наргиза МУРОЖААТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ТИЛШУНОСЛАР ТАДҚИҚОТЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ	39
18. Бозорбеков Ахмадбек ТИЛШУНОСЛИКДА «МАЙДОН» ТУШУНЧАСИ ХАҚИДА.....	41



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

СИНТАКТИК ТАКРОРЛАРНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИГА ХОС ЖИХАТЛАР

Каримова Хилола Мирзамаҳмудовна

Андижон давлат университети магистранти

Телефон: +98905477265

khilola@mail.ru

АННОТАЦИЯ. Интенсивлик ва эмоционаллик борлиқдаги нарса ва ҳодисаларнинг ҳаракати ҳамда ҳолати билан бевосита боғлиқ ҳолда намоён бўлади. Тилшуносликда интенсивлик ва эмоционалликни ифодалаш учун бир қанча воситалар қўлланилади. Шулардан бири – такрор маънони кучайтириш, интенсивлик ва эмоционалликни ифодалаш учун хизмат қилади. Такрор оғзаки ва ёзма нутқда, адабий, публицистик, илмий ва услубларда кенг тарқалган, шу боис кўплаб тадқиқотларнинг юзага келишига сабаб бўлган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: гап такрори, гап бўлаклари такрори, анафора, эпифора, тавтология, ўзак такрор.

Ўзбек тилида такрор ифода воситаси хусусида А. Шомаксудов ўзининг ўзбек тили стилистикасига бағишланган китобида қуйидаги фикрларни илгари суради ва мисоллар орқали изоҳлайди: сўзловчи ўз сезгиларига иборанинг мос эмаслигини англаб, сифатни миқдор билан тўлдиришга ҳаракат қилади. Бу эса такрорни юзага келтиради. Такрор эмоционал нутқни характерлайди [1, 56].

Демак, тарорнинг қуйидаги турлари ҳақида сўз юритиш мумкин:

1. Такрор айнан бўлиб, ёнма-ён келади. Такрорнинг бу кўриниши қуйидаги шаклга эга:

а) гап такрори: Ҳаммаси бўлади, ҳаммаси бўлади! – деди у ўзича, – боғлар ҳам, гуллар ҳам тўю-томошалар ҳам (Ж. Абдуллаев).

Такрорнинг бу кўриниши кўпроқ шахси аниқ бир бош бўлакли гаплардан иборат бўлади.

б) гап бўлаклари такрори: Икромжон йиғлади, йиғлади, йиғидан кўз ёшлари қуриди. Кўзларидан ёш думалайверди, думалайверди (С. Аҳмад).

в) ёрдамчи сўзлар такрори: Бироқ, бироқ Дилдор яшаётган уйда туришни у ўзини ўзи ҳақоратлаш деб биларди (С. Аҳмад).

2. Такрор айнан бўлади. Лекин кейинги бўлак бошқа бўлаклар билан кенгайиб келади. Бу маънони янада кучайтиради, таъкидлайди. Бундай такрорлар ҳам гап такрори, гап бўлаги такрори, ёрдамчи сўз такрори шаклида бўлиши мумкин: а) гап такрори: Жуда ўзгариб кетибди, – ўйларди Абдулла уйга қайтар экан. – Жуда ўзгариб кетибди. Нахотки икки йил ичида шундай ўзгариш мумкин бўлса?(Ў. Умарбеков).

б) гап бўлаги такрори: Сувни, тўлиб-тўлиб оққан сувни кўрсам кўзим қувонади, тўлкинида қулоқ отсам кўнглим яйрайди (Й. Ш).

в) модал сўз такрори: Афсус, минг афсуски, насиҳатимга қулоқ солмадингиз, насиҳатимга юрмадингиз (Ҳ. Гулом).

3. Такрор айнан бўлади. Лекин улар орасида бошқа бўлаклар келади: – Секин, яхши қиз, секин, – деди шарфли йигит ҳамон қулиб (Ў. Ҳошимов).

4. Такрорнинг иккинчи компоненти қисқарган шаклда бўлади [2,45]:

Гунафшалар очилди,

Чаккангга тақ, чаккангга.

Атир ҳиди сочилди,



Чаккангга тақ, чаккангга (З. Диёр).

Айрим ҳолларда такрорнинг тавтология турига услубдаги хатолик деб қаралади. Лекин нотиклик санъатида у жамоат этиборини ушлаб туриш учун хизмат қилади. Такрорнинг етакчи вазифаларидан бири – ифодани кучайтириш, ҳикояга урғу беришдир. Шеърятда такрор ритмик вазифани бажаради[3,87].

А. Шомақсудов И. Мусаевдан фаркли равишда, ўзбек тилида анафора ва эпифорани такрорнинг таркибига киритмай (такрорнинг турлари сифатида ўрганмай), балки синтактик фигураларнинг турлари сифатида таҳлил қилган. Улар жумласига анафора, эпифора, композицион боғланиш, такрор, синтактик параллелизм, антитеза, градация, риторик сўрокни киритиш мумкин. Аммо А.Шомақсудов синтактик фигуралар сафига қўшган анафора ҳам И. Мусаев таҳлилидаги (такрорнинг тури) анафора кабидир. Анафорда такрорланувчи сўз ва жумлалар ҳар бир гап, бўлак ёки жумланинг бошида келади. Бунда бир неча гаплар, мисралар, абзацлар бир хил сўз ёки бирикмалар билан бошланади. Бу параллелизмни ҳосил қилиб, тингловчининг диққати такрорланувчи бирликларга тортилади. Анафоралар гап, шеърый сатр ва абзацларни ўзаро муносабатга киришиш усули бўлиб хизмат қилади [1,78]. Аммо шу муҳит, шу қайноқ ҳаётда, шу гўзал инсонлар орасида, афсуски, Каримлар ҳам бор!...(Х. Ғ.).

Эпифора – анафоранинг акси. Бу усул билан такрорланган жумлаларнинг маъноси кучайтирилади. Анафора оғзаки ва ёзма нутқда бирдек қўлланса, эпифора, асосан, ёзма нутқ учун хосдир: Жуворнинг бутун берган дашноми ҳам бир бўлди-ю, ҳозир бодринг узатгани ҳам бир бўлди (А. Қ.).

Бундан ташқари, хориж тилшуноси П.Нобилининг мазкур стилистик восита хусусидаги фикрлари диққатга сазовор. Жумладан, у такрор деганда ҳарф, товуш, сўз, жумла сегментлари – кичик ифодаларнинг тўлиқ такрорланишини тушунади. У лексик ёки синтактик характердаги турланиш билан такрорланишни реформуляция, деб атади. Бу икки гуруҳнинг биринчиси – такрорга тадқиқотчининг қуйидагича ёндашувида: гапирувчининг беқарорлиги асосида вужудга келувчи уятчанлик, завқ-шавқ, таъсирчанлик каби туйғулари ҳамда шундай беқарорлиги туфайли юзага келадиган такрор бўлиб, у сўзловчининг суҳбатдошга ўз фикрини тушунарли қилиб етказиш мақсадида механик талаффузда тез-тез кузатиладиган паузаларда тегишли (зарур) сўзларни қўллашида кўришимиз мумкин. Шунга кўра лексик такрор учта кичик турга эга бўлади: а) нарратив-дескриптив жанрга хос такрорлар; б) нарратив-дескриптив жанрга хос стилистик функцияларни бажарувчи такрорлар; в) матн яхлитлигини

таъминловчи дискурсив функциядаги такрорлар назарда тутилади[4, 69].

Демак, ҳар икки халқнинг миллий-маданий хусусиятларидан келиб чиқиб, такрор ҳар бир тилда ўзига хос йўсинда тадқиқ этилган. И. Мусаевнинг таҳлилларига қўшилган ҳолда анафора, эпифора каби синтактик воситаларни такрорнинг турлари сифатида талкин қилиш мумкин. Такрорнинг стилистик вазифалари турли ва кўп қирралидир. Гапнинг энг муҳим бўлагига урғу бериш, сўзловчининг хиссий ҳолатини тасвирлаш, унинг таърифланаётган объектга эмоционал-экспрессив муносабатини кўрсатиш ҳамда жараён давомийлигини ифодалашда такрор муҳим стилистик роль ўйнайди. Кўп стилистик воситалар каби у ҳам эмпатик вазифа бажаради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Шомақсудов А, Расулов И ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: «Ўқитувчи», 1983. – 248 б.
2. Султонсаидова С, Шарипова Ў. Ўзбек тили стилистикаси. – Т., 2009. – 112 б.
3. Иминов М., Нўъмонов Т., Бобохонова Д. Ўзбек тили услубияти масалалари. – Наманган: «Наманган» нашриёти, 2007. – 112 б.
4. Белунова Н.И. Интегрирующая функция лексико-синтаксических повторов в текстах публицистического стиля// Текстовые реализации и текстообразующие функции синтаксических единиц: межвузовск. сб. науч. тр. – Л.: Изд-во ЛГПИ, 1988. – с. 70–85.



STUDYING MEDICAL STUDENTS PROFESSIONALLY ORIENTED ENGLISH

Mahmudova Dilnoza Mirsoat kizi

Tashkent Pharmaceutical Institute

Faculty of Pharmaceuticc

304-group

Tel: +998977636936

Annotation. The article considers teaching English to medical students from communicative and competence-based approaches. The article briefly reviews the specific features of medical English and possible activities aimed at professional vocabulary acquisition in multi-level learning groups.

Keywords: language, teaching, learning, student, English for special purposes, medicine.

To date, professionally-oriented, communicative, and competence-based approaches to teaching a foreign language are relevant for all areas of higher education. One of the directions of teaching English for the specialty is English for medical purposes. In accordance with the above approaches, the purpose of teaching English to medical students is to form their ability to use a foreign language, a language for professional and personal communication and for continuous self-development. The need for future doctors to master the English language is due to two factors: the dynamic nature of the medical field of scientific knowledge and the tendency to establish links between different states, which involves communication and exchange of experience of medical workers – speakers of different languages. One of the universal and unshakable means to help doctors from different countries understand each other is the Latin language, widely used in writing. However, today the priority of English as a language is practically not disputed tools for live communication with foreign-speaking colleagues. In addition, knowledge of English allows future and current specialists to “keep your finger on the pulse” and get acquainted in the original with the results of the latest research in the field of medicine published in reputable foreign publications and databases, such as Cochrane Library, PubMed. There are opportunities for medical students to participate in academic mobility programs that provide internships and exchange studies abroad. Thus, the content of the course of teaching students English for medical purposes may cover the following aspects:

1. verbal communication with patients and colleagues;
2. written communication on professional topics (filling out medical records, making referrals to specialists, writing incident reports, filling out other medical documentation);
3. reading scientific texts on medical topics;
4. presentation of reports and presentations at conferences.

To improve the efficiency of the learning process, work with students it can be built based on well-established textbooks. The manuals for medical faculties allow students to form a lexical and grammatical basis, skills of working with special text; give knowledge about anatomy, physiology, and pathological processes, methods of their diagnosis and treatment, but to a lesser extent involve communication skills important when working with patients. This task is met by foreign publications that develop communication skills with colleagues, patients, and their families, often on complex and sensitive issues.

Medical English has a number of characteristic features:

1. The prevalence of the times of the Simple (Past, Present) group when describing processes, mechanisms, functions of body systems (Practically all absorption takes place in the small intestine; The wall of the pharynx and the superior part of the esophagus, and the tongue and the soft palate all contain striated muscle tissue), collecting and clarifying information about current complaints and the patient’s condition (Where do you get the pain? Does the pain spread anywhere else? Does it wake you up at night?), making a medical history (When did the pain start? When did the attacks first come on?). Present Perfect is required to describe the onset of a painful condition (Have you ever had coughing attacks like this before? Has anyone in your family ever had an illness like this as far as you are aware?);
2. The prevalence of the passive voice (The needle is inserted; The patient is sedated to induce drowsiness);



3. An abundance of abbreviations (tds, stat, TT, prn, INH, qds);

4. The presence of phrasal verbs (When did the attacks first come on? Is there anything that brings it on? Try to get into a routine for taking medication if you can);

5. The predominance of nouns over verbs. A significant part of nouns of Latin and Greek origin has non-standard forms of plural formation (nucleus-nuclei, fascia-fasciae, vertebra-vertebrae, bronchus-bronchi, cilium-cilia). The most striking distinguishing feature of medical English is the presence of a specific vocabulary, the study and mastery of which is one of the most basic directions in the process of teaching and teaching a foreign language to students.

Professional vocabulary should be introduced in the context, for example, texts on the specialty, which will allow students to learn the environment of the new lexical unit (related phrases or grammatical constructions). The meanings of new words can be represented through direct translation, the use of pictures, definitions, a set of synonyms, antonyms and subordinate terms.

Reference

1. McCarter S. Oxford English for careers: Medicine 1. Oxford University Press, 2009. 143 p.
2. Saville-Troike, M. Introducing Second Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press. 2006
3. Swales, J., Feak, C. Academic Writing for Graduate Students: Essential Tasks and Skills. Michigan: University of Michigan Press. 2004



BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Jalilova Zebuniso Esanovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 998 913357872

Annotatsiya: Maqolada 4-sinf ona tili darslarida so‘z turkumlarini organishda interfaol usullardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshirish yuzasidan fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, muammoli savol, qo‘shimchalar, ijodiy izlanish, til hodisasining, tarmoqlash, ortiqchasini ajrat, o‘yin.

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularni dars jarayonida qo‘llash uchun o‘qituvchidan avvalo puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarning o‘quv jarayonida interfaol usullarni o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Quyida 4-sinf ona tili darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol usullar yuzasidan fikr yuritamiz.

Ma‘lumki, 4-sinf ona tili o‘quv dasturiga ko‘ra “So‘z turkumlari” bo‘limida ot, sifat, son, olmosh, fe‘l so‘z turkumlari o‘rganiladi. Bu so‘z turkumlari materiallarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda keng va har tomonlama erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish

Muhim o‘rin tutadi.

“Aqliy hujum” metodi uchun tanlangan muammoli savol butun sinf jamoasiga yakka tartibda bajarishga yoki juftliklarga ajratilib bajarishga, kichik guruhlar o‘rtasida bajarishga mo‘ljallanadi. “Aqliy hujum”da har qanday savol o‘rtaga tashlanavermaydi, u o‘quvchilarni fikrlashga undaydigan, masalaga turlicha yondashishni taqozo etadigan, keng fikr yuritish mumkin bo‘lgan savollar bo‘lishi kerak.

4-sinfda ot va sifat so‘z turkumi o‘rganilayotganda quyidagi kabi savollardan foydalanish mumkin:

1. So‘zlar nima uchun turkumlarga bo‘linadi?
2. Ot qanday qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi?
3. Egalik qo‘shimchalari va ularning vazifasi nima?
4. Kelishik qo‘shimchalari va bular qanday vazifa bajaradi?
5. Sifat va ot turkumining o‘zaro qanday bog‘liqligi bor?
6. Ot bilan fe‘lning o‘zaro qanday bog‘liqligi bor?

Fe‘l so‘z turkumini o‘rganayotganda esa o‘quvchilarga ushbu savollarni berish mumkin:

1. Fe‘llardagi zamon qo‘shimchalari qanday ma‘nolarni bildiradi?
2. Fe‘llarning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari qanday farqlanadi?
3. Fe‘llardagi shaxs-son qo‘shimchalari qanday ma‘nolarni bildiradi?

Bu usulning ahamiyati shundaki, “Aqliy hujum” orqali o‘quvchilarga berilgan savollar ularda bilishga bo‘lgan qiziqishni orttiradi va ularda ijodiy izlanish hosil bo‘ladi. O‘qituvchining “Ot qanday qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi?” degan savollari o‘quvchilarda “Otlar yana boshqa qo‘shimchalar bilan ham qo‘llanar ekan. Ular qanday qo‘shimchalar ekan?- degan qiziqishni paydo qiladi. O‘quvchilarga yana “Otlar oladigan qo‘shimchalar haqida qanday ma‘lumotlarni bilar edingiz? Ot oladigan qaysi qo‘shimchalarni bilmas ekansiz? Ularni bilishni xohlaysizmi?” degan o‘qituvchining savoli o‘quvchilarni ilgarilab borishga, bilimlar sari intilishga undaydi, ularni fikrlash darajasini oshiradi. O‘quvchilar “Aqliy hujum” orqali fikrlarning qadr-qimmatini, umumiy tushunish va tasavvurni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shishini anglab boradilar.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullardan yana biri

“Tarmoqlash” usulidir. Bu usuldan darsning da‘vat, anglash va fikrlar bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar tog‘risida fikrlashga yordam beruvchi tuzilmadir. Bu usuldan o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash va guruh-guruh bo‘lib ishlashda foydalanish mumkin.

Mazkur usul o‘rganilayotgan til hodisasini umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. “Tarmoqlash” usulida sinf yozuv doskasiga yoki katta varaqqa kalit



soʻzlar, soʻz birikmalari yoki gaplar yoziladi va kalit soʻzlar til hodisasining aloqadorligiga qarab bogʻlab boriladi. Masalan, soʻz turkumlarini oʻrganishda tarmoqlash usulidan foydalanilganda oʻquvchilarda darsga boʻlgan qiziqishi kuchayadi. “Tarmoqlash” usulidan 3- sinfda klaster tuzishda, agar u doska yoki katta varaqda sinf jamoasi bilan bajarilayotgan “Soʻz turkumi” tushunchasini hosil qilishda foydalanish mumkin.

Soʻz turkumlarini oʻrganishda “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha” metodidan ham foydalanish mumkin. Bu metod “Ortiqchasini ajrat” degan topshiriq berish bilan amalga oshiriladi. Oʻquvchilarga bir turkumdagi soʻzlar ichiga boshqa turkumga doir soʻzlar arlashtirib berildi. Oʻquvchilar ular ichidan boshqa turkumdagi soʻzlarni ajratib olishdi va nima uchun ajratib olish sababiini izohlab berishadi. Quyida topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

1. Otlar ichidan ortiqchasini ajrating: Maktab, kitob, osmon, koʻk, lola, mard, kamalak, yomgʻir, ikki.

2. Sifatlar ichidan ortiqchasini ajrating: Goʻzal, baland, choynak, qalam, tor, kichik, shirin, olma, kapkir, issiq.

3. Feʼllar ichidan ortiqchasini ajrating: Oʻqidi, tebrandi, sakradi, dutor, roʻmol, uxladi, tingladi.

“Kim koʻp soʻz tuzadi?” oʻyini. Kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yozib qoʻyiladi. Oʻquvchilar bosma shakldagi: T X N O A B L K I U harflar ishtirokida ot, sifat, feʼl soʻz turkumlariga oid soʻzlar tuzib yozadilar.

Tuzilgan soʻzlar: Non, nok, ota, ona, bola, kaklik, kakku, tulki, ukki, tok, bobo, aka, uka, xon va hokazo. Bu oʻyin bajarilgach, mavzu bilan bogʻliq topshiriqlar beriladi. Masalan, tuzgan soʻzlaringizga soʻroq bering. Ularni maʼnosiga koʻra turlarga ajrating.

Oʻquvchilar topshiriqni daftarlariga bajaradi va ular bajargan ishini oʻqib beradi.

Umuman olganda, ona tili darslarida oʻzbek tilining soʻzga boyligi, hafisligi, goʻzalligini oʻquvchilarga anglatishda, ularning soʻz zahirasini kengaytirishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlangʻich taʼlim boʻyicha yangi tahrirdagi ona tili fani oʻquv dasturi. 2017-y.
2. Rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyalari. RTM. 2016-yil.
3. Internet maʼlumotlari: [www. ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)



ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФЛОРИСТИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ

Ниёзова Шафоат Муроджон кизи

Студент-магистрант Узбекского государственного

университета мировых языков

Телефон: +998335496969

niezovabegim@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассматриваются фитонимы на материале произведений написанных на русском языке. Раскрываются виды флористических лексем.

Ключевые слова: лексема, флористическая лексема, фитоним, лексическая единица.

Как один из распространенных цветов роза имеет важное значение в культуре многих стран. Слово «роза» в русском языке происходит от латинского слова *rosa*. «Роза» определяется на русском языке как — “кустарниковое растение розоцветных с красивыми крупными душистыми цветками и со стеблем, обычно покрытым шипами, а так же сам такой цветок.” [Толковый словарь Ожегова]. В русском языке существует большое количество лексем-флоронимов, однако «роза» является одной из самых распространённых. Что касается языковой картины мира русского языка, то роза в нем представляется как яркий и распространенный образ. Из этого можно сделать предположение, что ее символические характеристики отличаются разнообразностью.

Если рассматривать флороним «роза» в контексте Национального корпуса русского языка, то его представление можно разделить на следующие группы:

1. Положительная коннотация, которая связана с любовью, с женской красотой, с чистотой, с Богородицей, с революцией и т. д.;
2. Отрицательная коннотация, которая связана с потерей вдохновения, счастья, красоты и т. д.

В соответствии с порядком выдачи результатов поиска поисковиком мы отобрали 600 фрагментов текста, относящихся к слову роза. В области лингвокультурологии, исходя из базового определения речевого поведения, символизация значения слова роза можно разделить на следующие группы:

1. Роза символизирует любовь

Возьмем для примера фрагменты текста в национальном корпусе. Ниже приведены некоторые из наиболее ярких примеров [остальные примеры см. в Таблице 4 в Приложении].

Жёлтый нарцисс — к измене, красная роза — к страстной любви, незабудка — верность до гроба... [Людмила Улицкая. Казус Кукоцкого [Путешествие в седьмую сторону света] // «Новый Мир», 2000]

И я зову: О, приди ко мне на заре утренней или вечерней, приди ко мне, светоносный, озари предо мною мир, дай мне понять вечный сон тихо возрастающих деревьев, и сонную, благоуханную любовь розы, и слепую любовь птиц, — и умереть! [Ф. К. Сологуб. Королева Ортруда [1909]]

Еще обнаружилась пара картинок вместо фотографий — мультяшный монстр с клыками и жирная алая роза с золотым нимбом надписи: «Добавляю только по любви!» [Сергей Шаргунов. Фоторобот Евы [2011] // «Сноб»,]

Когда-то — когда текущей студентке медицинского института, ещё совсем не автору, было без малого восемнадцать, — её пригласили на закрытый просмотр фильма режиссёра Сергея Соловьёва «Черная роза — эмблема печали, красная роза — эмблема любви». [Татьяна Соломатина. Большая собака, или «Эклектичная живописная вавилонская повесть о зарытом» [2009]]

Традиционно роза считается символом духовного развития человека и выступает как религиозная эмблема, начиная с самых древних времен. Она была у греков символом восхода солнца, мудрости и любви. Роза посвящалась Минерве, а также Венере. Таким образом, роза как символ любви находится под влиянием религиозных элементов и мифов. Роза символизирует сердце, а сердце всегда понималось христианами как эмблема добродетелей любви и сострадания [Коршкова 2019: 119]

2. Роза символизирует красоту



—Симочка! — закричал Скворцов. — Здравствуйте, деточка, вы цветёте, как роза, рад вас видеть! [И. Грекова. На испытаниях [1967]]

Женщины, молодые и старые, немедленно озарялись восхищенными и восхитительными улыбками; они так сияли, будто именно им была предназначена роза. [Александр Крамер. О скитальцах и странниках // «Сибирские огни», 2013]

Справа от меня Лида, она уже снова цветет, как роза, не иначе, помощник капитана Сережа приезжал утешать; [Алена Браво. Комендантский час для ласточек // «Сибирские огни», 2012]

А им, красавцам, хочется видеть жену цветущую и пахнущую как майская роза. [Женщина + мужчина: Психология любви [форум] [2004]]

Символическое значение розы воплощается как комплимент в речевом поведении. По мнению О. А. Агарковой, «комплимент как часть речевого этикета предполагает различение, размышление, в ходе которых человек сам домысливает суть высказанного. Он лишь опосредованно указывает на наличие у человека ряда положительных качеств и способен вызвать у собеседника приятные чувства» [Агаркова 2007:183].

Символическое значение розы часто используется как комплимент к внешним качествам человека [Харченко 1999:179]. Из примера видно, что комплимент в данном случае комплимент-сравнение: в конкретном контексте общения людей сравнивают с розами из-за их красивой внешности.

В успешной коммуникативной среде такие комплименты от говорящего могут вызвать у слушателя приятные чувства, тем самым достигая двустороннего языкового и культурного взаимодействия.

3. Роза символизирует свежесть

Учитывая, что фильм снят в 1976 году, Чемберлен свеж и хорош, как майская роза. [Анна Ковалева. Телекино в понедельник [2002] // «Известия», 2002.12.08]

Она должна быть свежа, как роза, — так эти отношения престижнее выглядят, подчеркивают мужскую состоятельность: Великий гуру, ужасный Гудвин и немного Гумберт Гумберт. [Как молоды мы стали [2002] // «Другой», 2002.11.15].

Список использованной литературы:

1. Банерджи Ранджана. Тема «малой» и «большой» родины в лирике Сергея Есенина и Рабиндраната Тагора // Сергей Есенин. Личность. Творчество. Эпоха. Ч. III: Сб. науч. трудов. Москва - Константиново -Рязань : Го сударственный музей-заповедник С. А. Есенина, 2018. Сер. «Есенин в XXI веке». Вып. 6. С. 168-182.
2. Барышникова Т. Д. Структурно-семантические и мотивационные свойства флоронимов в английском и французском языках: дис... канд. филол. наук: Пятигорск, 1999. 216 с.
3. Боброва Т. А. О природе названия и принципах номинации / Т. А. Боброва // Русский язык в школе. - 1974. - №4. - С. 73-79.
4. Воронова О. Е. «За берёзовую Русь...»: поэтика есенинского эпитета // Современное есениноведение. 2014, № 30. С. 24-47.



TILDA UMUMINSONIY, MILLIY VA IJTIMOY GURUH MADANIYATINING AKSI MUAMMOSI

Saparova Qunduz Otaboyevna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

umumiy tilshunoslik kafedrası

professori, filologiya fanlari doktori

Telefon: +998901681008

kundus@mail.ru

Annotatsiya: Xalq madaniyati ona va chet tillari soʻzlarida oʻz ifodasini topadi. Ogʻzaki muloqot madaniyatlararo muloqotdir. Madaniyatning aks etishi nutq faoliyatining barcha turlari va shakllarida, barcha koʻrinishlarida kuzatiladi. Bu holat tildagi madaniyat hodisasini madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya doirasida koʻrib chiqishni belgilaydi. Mazkur maqolada tilda umuminsoniy, milliy va ijtimoiy guruh madaniyatining aksi muammosi tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: til, madaniyat, lingvokulturologiya, etnologiya, etnografiya, falsafa, psixologiya.

Hozirgi vaqtda inson faoliyatining har bir sohasida xalqaro aloqalarning yuqori darajasiga erishilganligini taʼkidlash mumkin, bu ayniqsa siyosat, iqtisodiyot, sanʼat, fan, madaniyat va boshqalarda samaralidir. Davlat va xalqlar oʻrtasidagi rasmiy, ish yuzasidan, shaxsiy munosabatlar boshqa davlat, uning xalqi, tarixi, madaniyati va tili haqidagi bilimlarga asoslangan holda muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Buning natijasida dunyo va uning chegaralari, milliy yoki boshqa etnik madaniyat haqidagi yangi bilimlar kengaymoqda. Muayyan xalqning dunyosi va madaniyatini bilishda tilning oʻrni shubhasizdir, chunki «biz boshqa odamlarga yoki narsalarga ular biz uchun nimani anglatishiga unchalik munosabat bildirmaymiz» [Malgorzata, 2003, b. 225].

Tilni kulturologik jihatdan oʻrganish XX-asr 90-yillardan jadal rivojlanishni boshlagan lingvokulturologiya tomonidan amalga oshiriladi. V.V. Vorobyovning taʼkidlashicha, lingvokulturologiyaning shakllanishi ilmiy konferentsiyalar oʻtkazish, ilmiy maqolalar toʻplamlarini nashr etish, monografik tadqiqotlar, dissertatsiyalar yozish bilan boʻgʻliq boʻlgan ekstensiv xarakter hamda, shuningdek, konseptual apparatning rivojlanishi, bir qator boshqa lingvistik va nolingvistik fanlar qatorida fan maqomini belgilash bilan bogʻliq boʻlgan intensiv xarakterga egadir [Vorobiev, 2002, b. 7].

Lingvokulturologiya mustaqil ilmiy soha sifatida lingvamamlakatshunoslik, etnolingvistika va etnomadaniyatshunoslik negizida, tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesimida shakllangan. U xalq madaniyatining tilda oʻz aksini topgan va muhrlangan koʻrinishlarini oʻrganadi [Maslova, 1997, b. 8].

Lingvokulturologiya – bu madaniyat va tillarning oʻzaro munosabati va oʻzaro taʼsirini tizimli usullar va zamonaviy ustuvorliklarga asoslangan va madaniy yoʻl-yoʻriqlarga (meʼyorlar tizimi va umuminsoniy qadriyatlarga) eʼtibor qaratgan holda oʻrganadigan va bu jarayonni lingvistik va ekstralingvistik (madaniy) mazmun uygʻunligida birliklarning ajralmas tuzilmasi sifatida aks ettiruvchi sintezlovchi turdagi murakkab ilmiy fan [Vorobiev, 1997, b. 36-37].

V.N. Teliyaning fikriga koʻra, lingvokulturologiya «etnolingvistikaning bir qismi boʻlib, u til va madaniyatning sinxron oʻzaro taʼsiridagi muvofiqligini oʻrganish va tavsiflashga bagʻishlangan» [Teliya, 1996, b. 17].

V.A. Maslova lingvokulturologiyani til tushunchalarini shakllantirishda madaniyatning rolini va lingvistik belgining maʼnosiga «madaniy maʼnolarni» qoʻshish mexanizmini ochib berishga moʻljallangan, ona tilida soʻzlashuvchilarning madaniy maʼnolarni matnlarda mujassamlantirish va ona tilida soʻzlashuvchilar tomonidan tanilishga asos boʻluvchi madaniy va lingvistik qobiliyatlari mavjudligi masalasini hal qilish, maʼlum bir madaniyatning asosiy tushunchalari toʻplami va boshqalarni qamrab oluvchi kontseptosferani oʻrnatishga qaratilgan mustaqil bilim sohasi deb hisoblaydi [Maslova, 1997, b. 30].

V.V. Vorobyov lingvokulturologiyaning madaniyatning tilda va tilning madaniyatda namoyon boʻlishini oʻrganuvchi fan sifatida integrativ xususiyatini qayd etadi va ikkita asosiy yoʻnalishni ajratib koʻrsatadi – nazariy va amaliy: «Birinchi holatda, asosiy vazifa konseptual apparat bilan ishlash, asosiy tushunchalarning batafsil tahlili. Ikkinchi holatda, tadqiqotchilar asosiy tushunchalarni ishlab chiqishning aniqligi muhim emas deb hisoblashadi – asosiysi, muayyan



lingvistik muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lsa bo'lgani» [Vorobiev, 2002, b. 7].

Til, bir tomondan, madaniyat mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, uni saqlash, uzatish va takomillashtirish vositasidir. Madaniyatning rivojlanishi ham meros, ham butun insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan ijodiy faoliyatni nazarda tutadi. Insoniyat jamiyatida buni tilsiz, og'zaki muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Madaniyat insoniyat taraqqiyotiga qaratilganligi sababli, madaniyatning subyekti butun jamiyat hisoblanadi. Madaniyatni rivojlantirish va takomillashtirishda alohida ijtimoiy guruhlarining ishtiroki madaniyatdagi guruh kabi tushunchani belgilaydi – uning mazmunida alohida ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlari, shuningdek, unga bo'lgan munosabati yotadi. Ushbu ijtimoiy guruhlarda madaniy qadriyatlar – sotsiologik madaniyat o'rnatiladi.

Bunday ijtimoiy guruhlariga xizmat qiluvchi til ularning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Tilni nafaqat umuminsoniy va milliy madaniyatlarning namoyon bo'lishi, balki guruhning madaniyatdagi aksi – alohida ijtimoiy guruhlarining madaniy qadriyatlari sifatida ham o'rganish zarurati mavjud. Agar birinchi holatda bunday tadqiqot turli madaniyatlar so'zlovchilari tilining umumiyli va milliy o'ziga xosligini aniqlashga imkon bersa, ikkinchi holatda u turli segmentlarga mansub bir xil madaniyat so'zlovchilari tilining umumiyli va o'ziga xosligini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Воробьев В. В. Лингвокультурология (Теория и методы). – М., 1997.
2. Воробьев В.В. Сопоставительная лингвокультурология и межкультурная коммуникация: Матер. Междунар. науч. конф. – Самарканд, 2002. – С. 6-14.
3. Малгожата В. Художественное слово в формировании культуроведческой компетенции студентов-русистов. – *Poznan*, 2003. – С. 225-230.
4. Маслова В. А. Введение в лингвокультурологию. – М., 1997. – 205 с.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИ ИЈТИМОИЙ МУНОСАБАТГА ТАЙЙОРЛАШДА О’ЙИНCHOQLAR VA O’YINLARNING АҲАМИЯТИ.

Sattarova Odina Mamadaminovna

Farg’ona viloyati Buvayda tumani

7-maktabgacha ta’lim tashkiloti

tarbiyachisi

Tel nomer: +998996008987

Annotatsiya: ushbu maqolada farzandni tarbiyalashda va ijtimoiy munosabatga tayyorlashda o’yinchoqlar va o’yinlarning ahamiyati haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Kalit so’zlar: o’yinchoqlar, xalq o’yinchoqlari, bolalar o’yinlari, ijodiy qobiliyat, intellektual qobiliyat, ijtimoiylashtirish, shaxs, syujetli-rolli o’yinlar, ijodiy o’yinlar, harakatli va didaktik o’yinlar.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirishda o’yinchoqlar o’ziga xos tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo’ladi. Xo’sh, o’yinchoqlar o’zi nima va ular qanday tarbiyaviy ta’sirga ega?

O’yinchoqlar aniq yoki tasavvurdagi obrazlarni aks ettiruvchi hamda o’yinlar uchun moslashtirilgan predmetlar sanaladi. O’yin faoliyatida o’yinchoqlar ta’lim-tarbiya vositasi sifatida qo’llaniladi.

Shaxsni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalashga xizmat qiluvchi o’yinchoqlar maktabgacha ta’lim yoshi bolalariga ijtimoiy borliqni anglashga yordam beradi, uni maqsadga muvofiq, ongli faoliyat ko’rsatishga o’rgatadi, fikrlashga undaydi, shuningdek, hissiy sifatlarni rivojlantirish, nutq qobiliyatini o’stirish, xotirani boyitish va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o’yinchoqlardan keng foydalaniladi. O’yinchoqlar yordamida bolalarda texnik, badiiy ijodiyot ko’nikma va malakalari shakllandi. Turi, harakteri, mohiyati va shakliga ko’ra o’yinchoqlar aniq tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga yo’naltiriladi.

Manbalarda o’zbek xalqining ham azaldan bola tarbiyasida turli-tuman o’yinchoqlardan keng foydalanib kelganligi aytiladi. Muayyan xalq tomonidan asrlar davomida foydalanib kelingan o’yinchoqlar “xalq o’yinchoqlari” nomi bilan atalgan bo’lib, ularda xalqning turmushi, uning qadriyatlari va xatto orzu-istaklari o’ta ustalik bilan tasvirlangan. Xalq o’yinchoqlari bozorlarda, bayramlar va ommaviy xalq sayillardagi tomoshalarda qo’g’irchoq o’yinlarini namoyish qilishda keng qo’llanilgan.

O’yinchoqlarning tarbiyaviy kuchi ularning bola ruhiyatiga ta’siri, uning hayolot olamini boyitishga yordam bera olishi, ulardan foydalanish jarayonida ijtimoiy munosabatlar mohiyatini ifodalovchi qoidalar bilan bolani tanishtirish imkoniyatiga egaligi bilan belgilanadi. Shuningdek, an’anaviy tarzda tashkil etilib keluvchi qo’g’irchoq tomoshalari qahramonlari qiyofasida “insoniylik, aql-idrok, mardlik, xalqparvarlik kabi oliyjanob xislatlar” ulug’langanki, bu holat maktabgacha ta’lim yoshi bolalarida ham ana shunday sifatlarga ega bo’lish lozimligi to’g’risidagi dastlabki tushunchalarni hosil qilgan. Qo’g’irchoq o’yinlarida insonlarga xos salbiy odatlar va ularning ijtimoiy oqibatlari to’g’risida ham bolalarga xos tilda tushunchalar beriladi. Qo’g’irchoq o’yinlarida ifodalanuvchi badiiy tasvirlar, hissiy kechinmalar, obrazli vaziyatlar bolalarda jamiyat tomonidan tan olingan ma’naviy-axloqiy qarashlarga nisbatan hissini uyg’otadi.

O’zbek milliy o’yinchoqlari asralra davomida “loy, latta-putta, yog’och, jun va boshqa arzon materiallardan” tayyorlangan hamda, “bir necha avlodlarning ijodiy faoliyat evaziga o’ziga xos, bejirim, takrorlanmas o’zbek milliy libosidagi qo’g’irchoqlar, xalq ertaklarining qahramonlari, mahalliy uy hayvonlari, zobitlar, uy-ro’zg’or va maishiy xizmat buyumlari, xalq turmushida qollaniladigan texnikaviy qurilmalar (suv tegirmonlari, milliy hunarmandchilik dastgohlari, uylar va boshqa inshootlarning dastgohlari) va hakoza kiritish mumkin”.

Bolalar o’yinlari. Maktabgacha ta’lim yoshi bolalarning asosiy faoliyati o’yin hisoblanadi. O’yinlarning o’ziga xos xususiyati – bu ularning ma’lum qoidalarga muvofiq o’ynalishi hisoblanadi. Bolalar o’yinlari unda ifodalanuvchi mazmun, syujet hamda ko’zlangan maqsadga ko’ra bir necha turlarga bo’linadi.



Syujetli-rolli o'yinlar bir necha ishtirokchi yoki jamoa ishtirokida tashkil etilib, unda buyumlar bilan bajariladigan xilma-xil harakatlar tasvirlanadi. Bunday o'yinlar jarayonida bolalar buyumlardan foydalanish, ular bilan amallar bajarishning ijtimoiy mustahkamlangan usullarini o'zlashtirib oladilar. Bunda harakatlarni umumlashtirish va bolaning ongida ularni aniq bir buyumdan ajratish jarayoni ro'y beradi. O'yin qatnashchilarining har biri muayyan vazifalarni bajaradilar. Bunday o'yinlar, asosan, bolalarda muloqat hamda atrofdagilar bilan faol munosabatga kirishish ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalari orasida syujetli-rolli o'yinlar sifatida “Mehmon-mehmon”, “Maktab”, “Vrach ko'rigi”, “Shofyorlar”, “Askar-askar”, “Ov”, “Qaroqchilarni tutish”, “Hindular”, “Qo'riqchi” kabi o'yinlar ommalshgan.

Ijodiy o'yinlar esa bolalarni aqliy jihatdan rivojlanishlariga ko'maklashadi. Bunday o'yinlarning o'ziga xos jihati-oyin jarayoniga nisbatan ijodiy yondashish sanalib, ular asosan, turli tnlovlar va musobaqalar shaklida tashkil etiladi. Ijodiy o'yinlar mazmunining rivojlanishi bolalarning bilish yo'nalishini aks ettiradi.

Harakatli o'yinlar maktabgacha ta'lim yoshi bolalarida jismoniy sifatlarini shakllantirish, ularni sog'lom qilib o'stirish maqsadida qo'llaniladi. Bunday o'yinlar odatda ma'lim buyumlar asosida bajariladi. Halqa, brus, arqon, koptok va boshqalar yordamida bajariladigan mashqlar bolalarning muayyan organlarini to'g'ri rivojlanishini ta'minlash bilan birga, chaqqonlik, epchillik, yig'inchoqlik va chidamlilik kabi jismoniy-irodaviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlarning maqsadi “bolalarni aqliy rivojlantirish” sanalib, ularning mazmuni va ularda mujassamlangan aqliy vazifalar juda rang-barangdir. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarning sensor qobiliyati, turli xil sensor sifatlari, ya'ni ranglar, kattalik, uzunlik, sanoq, hajm va shakllarni farqlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda didaktik o'yinlarning o'rni va roli beqiyos. Loto tipdagi o'yinlarni ham didaktik o'yinlar sirasiga kiritish mumkin. Ular bolalarning diqqatini rivojlantiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi, hayolotini boyitadi, moddiy borliq to'g'risidagi tasavvurlarini oydinlashtiradi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirishda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan o'yinchoqlar va bolalar o'yinlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda ularning fiziologik, jismoniy va psixologik xususiyatlarini inobatga olish ularning aqliy, axloqiy va ruhiy jihatdan to'g'ri rivojlanishlariga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosan jamoa ishtirokida o'ynaladigan o'yinlardan foydalanish tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirishda muhimahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova S. Komil shaxs tarbiyasi. T. Istiqlol. 2003 y. 224 bet.
2. Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Mas'ul muxarrir: D.Alimova tarjimasini. Sh.Voxidov. T. Ma'naviyat. 1998 y 112 bet.
3. Qurbonov M. Ma'naviyati va milliy tarbiya. T. FAN. 1995 y 118 bet.
4. Mavlonova R. To'raev O. Va boshqalar. Pedagogika. T. O'qituvchi. 2002 y. 387 bet.
5. Jumaev R. Z., Ubaydullaev U.A., Xo'janov B. A. Konfliktologiya asoslari. (o'quv qo'llanma) T. “Akademiya” nashryoti. 2000y.
6. Mavlonova R.A., N. Vohidova., N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: “Fan va texnologiya” nashryoti 2010 yil.
7. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi; Umum ta'lim maktablari uchun. – T.: O'qituvchi, 2016 yil
8. Almatov N.SH. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. O'qituvchilar uchun qo'llanma. T.1993-yil 19-bet



AMALIY PSIXOLOGNING OTA-ONALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shodmonova Shaxlo Mirodil qizi

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

7-maktabgacha ta'lim tashkiloti

psixologi

Tel nomer: +998999974945

Annotatsiya: ushbu maqolada amaliy psixologning ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarining o'ziga xos jihatlarning ahamiyati haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, oila, mahalla, intellektual, individual, anomal munosabat.

Oila jamiyatining boshlang'ich bo'g'ini sifatida bolalarning axloqi, qobiliyati, aql-zakovati, xulqi, yurish-turishi, xatti-harakati, muloqoti, e'tiqodi va dunyoqarashlariga yuqori darajada tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Birinci prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor”.

Ma'naviy boy va axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, chuqur bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxs ham, avvalo, sog'lom turmush tarsi qaror topgan oilada shakllanadi.

Bolaning ijtimoiylashuv jarayoni ham oilada, eng avvalo oilaviy mehnat jarayonida hamda oilaviy munosabatlar yig'indisidir. Oiladagi muhit boshqa har qanday guruhda bo'lgan qoidalarda tarkib topadi, biroq oilada ish birmuncha murakkabroqdir, uyda kishilar o'z hayotining ko'proq qismini o'tkazadilar, ular bir-birlari bilan ko'proq samimiy tuyg'ular va munosabatlar orqali bog'lanadilar.

Psixologning turli yoshdagi bolalarning ota-onalari bilan ishlashining o'ziga xos psixologik xususiyatlari mavjuddir. Ota-onalarga turli yosh davrlarida bolalarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, ularning individual xususiyatlari, ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatning o'ziga xos “o'tish” davri haqida, “tarbiyasi qiyin” bolalarning kelib chiqishi va uning o'ziga xos biologic, psixologik va ijtimoiy sabablari haqida tushuntirish ishlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishlari lozim. Ayniqsa, ota-onasi qarovsiz qolgan bolalar bilan ishlash muhimdir. Qarovsiz qolgan bolalar ko'proq normal bo'lmagan, anomal munosabatga ega bo'lgan oilalarda uchraydi. Bunday oilalarda bola qarovsiz qolishi, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari oila muhitini larzaga keltiradi, bolalar ongiga, aql-zakovatiga, dunyoqarashiga, e'tiqodiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixolog bunday bolalar bilan individual ishlar olib borishi, ularning fikr-mulohazalarini tinglab, yo'l-yo'riqlar berishi lozim. Ota-ona qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalariga psixolog farzandlarining tibbiy yordamga muxtojligi yoki maxsus muassasalarga murojaat qilish va maxsus muassasalarga bolalarni topshirish zarurat ekanligini yuksak pedagogic odob bilan tushuntirish, berilayotgan ko'rsatmalarga ularni ishonitirishi shart. Amaliyotchi psixolog o'quvchiga o'z hayot faoliyati doirasidagi psixologik muammo sifatida anglanganshaxsiy muammolarini yechishda o'quvchi uchun hayot yo'lini belgilashda yordam bera olishi muhim.

Amaliyotchi psixolog maktab hayotiga faol aralashish, o'z xizmat vazifasini amalga oshirishda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi zarur. Jamiyat ehtiyojlari bugungi kunda tarbiyasi “qiyin” bolalar guruhi muammolari bilan ishlash, shuningdek, favqulodda holatlarga tushgan oilalar va bolalarga tezkor yordam, narkomaniya, profilaktika, turli oqimlar ta'siridan profilaktika qilish va h.k. ushbu muammolar bilan to'qnashishni qanchalik xohlamasak-da, barchasi mavjud muammolardir, chunki bola ijtimoiy muhitda yashaydi va muammolardan alohida bo'la olmaydi. Amaliyotchi psixolog pedagogik jamoa bilan hamkorlikda “tarniyasi qiyin” bolalar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratish, ushbu salbiy holatning kelib chiqish omillarini o'rganish va korreksion chora-tadbirlarini tarbiyachilar jamoasi va ota-onalar bilan hamkorlikda olib borishi, bunday o'quvchilarga kompleks yondoshish zarur, bunday tadbirlar ularni intellektual-emotsional-irodaviy rivojlanishdan orqada qolish holatlarining oldini oladi. Bu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, mahalla hamkorligining uyg'unligiga erishish, o'quvchilarda sog'lom fikr,



sog'lom dunyoqarash va sog'lom ehtiyojlarni shakllantirish bugungi kunning ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy-tarbiyaviy zarurat sifatida jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk, komil inson sifatida shakllantirish biz ziyolilarning umuminsoniy burchimiz ekanligini teran anglashimizga aniqlik kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova S. Komil shaxs tarbiyasi. T. Istiqlol. 2003 y. 22 bet.
2. Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Mas'ul muxarrir: D.Alimova tarjimasi. Sh.Voxidov. T. Ma'naviyat. 1998 y 32 bet.
3. Qurbonov M. Ma'naviyati va milliy tarbiya. T. FAN. 1995 y 12 bet.
4. Mavlonova R. To'raev O. Va boshqalar. Pedagogika. T. O'qituvchi. 2002 y. 37 bet.
5. Mavlonova R.A., N. Vohidova., N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: “Fan va texnologiya” nashryoti 2010 yil.
6. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi; Umum ta'lim maktablari uchun. – T.: O'qituvchi, 2016 yil
7. Almatov N.SH. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. O'qituvchilar uchun qo'llanma. T.1993-yil 23-bet



ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA ОМОНИМ SO‘ZLARNI O‘QITISHDA QO‘LLANUVCHI METODLAR

Vafoqulova Go‘zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar
instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada Ona tili darslarida omonim so‘zlarni o‘qitishda qo‘llanuvchi metodlar mavzusi bo‘yicha uslubiy metodik ta‘minot keltirildi.

Kalit so‘zlar: Leksikologiya, leksika, omonim, tuyuq, zakiylik san‘ati, shakldosh so‘zlar,

O‘zbek tili ta‘limining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri hamda ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iboratdir.

Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Shuni unutmash kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta‘lim va tarbiya olishiga bog‘liq” – deya bejizga ta‘kidlamagan¹.

Ta‘limda “Leksikologiya” bo‘limini o‘qitishning yangi innovatsion tizimini yaratish o‘zbek tili fanining muhim vazifalaridan biri ekanligini anglaymiz. O‘z fikrini ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni zamon talabi darajasidagi mutaxassis deb bo‘lmaydi. Ana shuni hisobga olgan holda akademik listeylarda o‘zbek tili ta‘limiga alohida e‘tibor beriladi.

Leksikologiya (yunoncha *lexis* – so‘z, *logos* – ta‘limot) «so‘z haqida so‘z», «so‘z haqida ta‘limot» demakdir. So‘zning lug‘aviy ma‘nosi, lug‘aviy ma‘no

¹ Mirziyoyev Sh.M. - “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” ma‘ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. №: 47. 2016 yil. 8 dekabr. 3-bet.


turi, so‘zning shakl va ma‘no munosabati, lug‘at tarkibidagi faol va nafaol so‘z, tarixiy jihatdan o‘zbek tili leksikasi, so‘zning hissiy va uslubiy xususiyati kabilarni o‘rganadi. So‘zda qanday lug‘aviy ma‘no munosabati bo‘lsa, barchasini

leksikologiya tekshiradi.

Tilimizda tovush (yozuvda harflar) tomoni bir xil bo‘lib, turlicha ma‘nolarni ifodalovchi so‘zlar va qo‘shimchalar mavjud. Bunday so‘z va qo‘shimchalarning omonimlar (lot. *homos-bir*, *onuma-nom*) yoki shakldoshlar deyilishidan xabaringiz bor. Masalan, ot «hayvon», ot «ism», ot «irg‘it» kabi. Shuningdek, tilimizda qo‘shimchalar o‘rtasida ham shakldoshlik munosabatlari mavjud. Masalan, -chi qo‘shimchasi so‘z yasovchi qo‘shimcha (ishchi, suvchi) hamda yuklama (sen-chi, ayt-chi) ma‘nolarida ishlatiladi. Shunga ko‘ra, omonimlar lug‘aviy (leksik) omonimlar hamda qo‘shimcha (affiks) omonimlarga bo‘linadi.

Lug‘aviy (leksik) omonimlar nutq jarayonida so‘z o‘yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylik san‘atida ulardan o‘rinli foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi. O‘zbek tilida leksik omonimlar ko‘p ishlatilganligi sababli, u maxsus she‘riy janr - tuyuqqa ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari nutqimizda frazeologik omonimlar ham mavjud bo‘lib, ularga ”boshiga ko‘tarmoq” (*1-hurmat qilmoq*, *2-to‘polon qilmoq*), ”ko‘z yummoq” (*1-vafot etmoq*, *2-ko‘rmaganga olish*) kabilar misol bo‘la oladi.



Izoh: Shundan so'ng o'qituvchi guruh o'quvchilarining sonidan kelib chiqib ularni guruhlarga ajratadi va ularga alohida nom beradi. Albatta, nom berish ham mavzuga mos omonim so'zlardan tashkil topsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Guruhlar shakllangach, ularga birin-ketin topshiriqlar beriladi va guruh to'plagan natijalar o'qituvchi tomonidan hisoblab boriladi.

46-mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Omonim yoki polisemantik so'z ekanligini aniqlang.

Do'st, yosh, yuz, nafis, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o'ch, quloq...

Namuna: 1. Olti narsa rohatda yashashga yordam beradi, shulardan biri haqiqiy do'sting bo'lmoqligidir. 2. Bugungi kechamizga shoir Do'st Hamdam ham tashrif buyurgan. 3. Do'st!!! Yana bir juft qo'shiq bo'lsin!

Mavzu yuzasidan qisqa muddatli test

1. Qaysi qatorda shakldosh so'zlar qatnashgan gaplar juftligi berilgan?

A) Shoir boshini birdan ko'tardi. - Ochilgan paxtani bir boshidan tering.

B) Maktabda "o'tkir zehnlilar" musobaqasi bo'lib o'tdi. - O'tkir boltasi bo'lsa-yu, shart bir daraxtni kesib yelkasiga olib jo'nasa.

C) Hech bo'lmagandan ko'ra kech bo'lgani yaxshi. - Bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning.

D) O'zbekistonning Davlat tili - o'zbek tilidir. - Razvedkachilarga "til" tutib kelish topshirilgan edi.

2. So'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud gapni toping.

A) Mashina dovon tepasiga ko'tarilar ekan, derazadan salqin shamol urildi.

B) Mirzakarimboyni Toshkentning to'rt dahasi biladi.

C) Ot afzalin shayladi, o'q-anjomin boyladi.

D) O'zbek xalqi ichidan o'nlab daholar yetishib chiqqan.

3. Omonim so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

A) yoz, o't, ol, yon B) bor, til, soch, tut C) tik, yosh, qo'y, ko'k D) A, B, C

4. Omonim va ko'p ma'noli so'zlarning o'zaro farqi qaysi qatorda noto'g'ri izohlangan?

A) omonim so'zlarning anglatgan ma'nolari orasida aloqa bo'lmaydi

B) ko'p ma'noli so'zlar bir so'z turkumiga tegishli bo'ladi

C) omonimlik har xil so'z turkumi doirasidagina kuzatiladi

D) polesemik so'zlar orasida ma'noviy bog'lanish bo'ladi

5. Ko'k (rang), ko'k (o'simlik), ko'k (osmon). Uchala o'rindagi ko'k so'ziga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.

A) ko'p ma'noli so'z B) omonim so'z C) polesemantik so'z D) paronim so'z

Izoh: Dars yakunida guruh ballari e'lon qilinadi, darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi, uyga vazifa beriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. - “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” ma'ruzasi // Kuch adolatda gazetasi. №: 47. 2016 yil. 8 dekabr. 3-bet.
2. X.Z.Muxiddinova, G.Z.Muxamedjanova, F.S.Talipova. O'zbek tili (10-sinf uchun darslik) – T., «O'zdavnashr», 2017;
3. B.Mengliyev, O'.Xoliyrov. O'zbek tilidan universal qo'llanma – T., 2017;
4. A.Nurmonov, G.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (AL uchun) - T. “O'qituvchi” – 2015;
5. G'.Abdurahmonov, S.Mamajonov. “Ona tili va adabiyot” – T., 2017.



РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И АНТИЦЕННОСТЕЙ В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

М.О. Носирова,
старший преподаватель (УзГУМЯ)

Аннотация. Каждый язык воплощает в себе систему национальных, своеобразных особенностей, формирующих мировоззрение носителя языка. В статье рассматриваются особенности выражения социальных ценностей и антиценностей в антропоцентрических пословицах.

Ключевые слова: социальные ценности, социальные антиценности, антропоцентрические пословицы, аксиология, лингвистика, социология.

В социологии понятие ценности толкуется, соответственно, исходя из ее функции социальной регуляции. Социальные ценности в основном представлены нравственными ценностями, которые закрепляются в стереотипах, идеалах, нормах, что одновременно является объектом исследования и культурологии. Если социология изучает ценности с точки зрения их потенциала в формировании регулирующей общество идеологии, то культурология рассматривает их как элемент культуры.

В аксиологии ценность понимается как значимость объекта для человека или общества. Поскольку объект может быть оценен как положительно, так и отрицательно, признана биполярная структура ценности, предполагающая, что у каждой ценности есть противоположность – антиценность. «Ценности формируют ценностную картину мира, которая обусловлена особенностями культуры и связана с реконструкцией определенной ценностной подсистемы знаний человека и включает в себя как коллективные, так и индивидуальные ценности» [1]. В этом заключается основная природа понятия ценности с точки зрения аксиологии.

В качестве немаловажного параметра оценки человека в антропоцентрических пословицах узбекского и русского языков следует рассматривать социальное положение. В целом, социальный уровень ценностей в антропоцентрических пословицах узбекского и русского языков представлен аксиологическими пословичными диадами типа «Семья – Одиночество», «Дети – Бездетность», «Коллектив – Индивидуум», «Брак – Развод», «Брак – Внебрачие», «Коллективизм – Индивидуализм», «Альтруизм – Эгоизм» и др.

При репрезентации ценностей и антиценностей в аксиологических пословичных диадах на социальном уровне имеют место лексическо-грамматические средства номинации и характеристики человека типа *кампир, чол, бола, қари, ёш, катта, кичик, йигит, қариндош, уруғ, ўғлон; дети, старик, женщина, мужчина, сын, родня, приятель, род, сородичи* и др.

Антропоцентризм, характеризующийся наличием человеческого измерения во всех объектах исследования, не может не коснуться проблемы формирования в человеческом сознании, мировосприятии и мировоззрении адаптативного механизма саморегуляции индивида в обществе и проявления отражения данного механизма в поступках, действиях и поведении человека.

Одним из таких рычагов регулирования поведения индивида и общества в целом является система духовно-нравственных и социально-культурных ценностей, призванная обеспечить созидательное начало в деятельности человека. Система духовно-нравственных и социально-культурных ценностей в сознании индивида выполняет функцию социокультурных установок, предопределяющих выбор модели поведения.

Анализ роли системы духовно-нравственных и социально-культурных ценностей в «процессах самовыражения человека в языке позволяет увидеть жизненную реальность радикальной оппозиции двух возможностей оценивания мира и самого себя в мире, категоризируемую в антиномии имен «Благо»/«Зло» [2]. Вместе с этим осознается нюансированный характер оценивания в дискурсивных пространствах по векторам априорности и апостериорности, субъектности и объектности. Это достигается при посредстве операторов речемыслительных процессов совмещения, сопоставления, подведения под известное и общее, сравнения, обобщения, столкновения смыслов при их формулировании и целенаправленном продвижении», что в совокупности свидетельствует



«об аксиологичности человеческого сознания, его ориентации на выработанные обществом и принятые субъектом сознания ценности», имеющие свойство оцениваться по той или иной оценочной шкале: *хорошо – плохо, можно – нельзя, положительно – отрицательно, разрешено – запрещено* и т.п.

Исследованием ценностного мира, представленного системой ценностей и их социально-культурных взаимосвязей с реальностью в целом и обществом и личностью в частности, занимается наука аксиологии.

Таким образом, представленные в виде ценностей фундаментальные нормы и достижения человечества лежат в основе конструирования бытия, помогают индивиду интегрироваться с социумом, в котором он проживает. Такие нормы регламентируют поведение человека в обществе, побуждая его действовать в очерченных обществом рамках, делать социально одобряемые поступки. Сказанное в полной мере относится и к речевому поведению человека, в котором «реализуется языковое сознание, отражающее те манеры общения индивида, которые определяются следующим: языковой и коммуникативной компетенцией, национальной принадлежностью, социально-культурным статусом (профессия, должность, уровень образования, культурные нормы и обычаи), биолого-физиологическими данными, психологическими параметрами, ситуацией, степенью знакомства коммуникантов, устойчивыми вкусами, внешними данными и пр.» [3]. Фундаментальные нормы и достижения человечества, таким образом, заложены в языковом сознании индивида и общества.

Литература:

1. Гибатова Г.Ф. Аксиология в языке. – Оренбург, 2011. – С. 128.
2. Лингвистика и аксиология: этносемиотрия ценностных смыслов: коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – С. 12.
3. Сайфуллина Э.Р. Когнитивная сфера русских и татарских паремий: «образ языка» и нормы речевого поведения. – Уфа, 2009. – С. 8.



HOW TO INTEGRATE STEAM IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM

Baxtiyorova Dinora,
teacher of school No. 8,
Khanka district, Khorezm region.
Phone: +998975176494

Annotation: In this thesis I explain why an integrated approach is useful, and how to integrate STEAM with your day to day teaching. The world is integrated, so teaching should be too. No learning takes place in a vacuum. Instead, students should always be using their knowledge of the world to connect ideas. This is especially true when it comes to STEAM subjects – science, technology, engineering, art and design and maths.

Key words: STEAM approach, science, technology, engineering and maths.

Most people understand how STEM (science, technology, engineering and maths) subjects are connected. But for students to develop STEM skills, we need to integrate these subjects with the arts – and vice versa. The arts is an umbrella term for things like dance, music, drama, movement, painting, drawing, crafting, sculpture, and design. And as we mentioned above, scientists, technology developers, engineers and mathematicians need to be creative to innovate. Artists also need to observe, hypothesise and experiment – which in many ways is similar to a scientific process.

There are lots of benefits to creating connections across STEAM subjects and content areas in your curriculum. For example: Our brains are wired to make connections. When we connect two pieces of information in our brain, we are much more likely to understand, remember, and be able to apply this knowledge.

So, combining subjects mimics real life and prepares the brain for a world in which knowledge is integrated.

How to integrate STEAM in your language classes

1. Connecting STEAM subjects

STEAM subjects should facilitate interdisciplinary learning and always go hand-in-hand. For example, if you're teaching your learners about patterns in English, you could make connections between patterns in odd and even number sequences (maths) and patterns in sound waves (science). And you could bring in patterns in buildings (engineering), patterns used for coding (technology) and dance choreographies or abstract paintings (art). Find out how to plan a successful STEAM lesson.

2. Connecting STEAM and language

Learning objectives are a good starting point to develop STEAM connections. For example, when teaching the topic of animals and their habitats, there are lots of STEAM connections you can make. For example, you could ask students to build a habitat for an animal (engineering), decorate the habitat (art and design) and include what that animal needs to survive (science). You could then have students present their habitat creation to the rest of the class – practicing their English language presentation and speaking skills. Depending on their proficiency level, learners can also learn language skills used by a range of STEAM professions. Take a scientist, for example. These language skills include listening to others and negotiating, reading and interpreting text or data, writing down hypotheses, labelling designs, recording data, sharing explanations, communicating ideas and solutions, and publishing results.

3. Connecting STEAM and literature

You might decide to connect a STEAM challenge to a storybook you are reading in class. There are lots of books that develop creativity, thinking skills, critical thinking, and scientific thinking. For example, if you are reading *The Very Hungry Caterpillar* with your students, you can have them make the tiniest or biggest caterpillar they can out of different materials like bottle tops or egg cartons.



4. Connecting STEAM and Project-based learning

Project-based learning (PBL) helps learners identify a problem, generate other questions to research, think of solutions and present their ideas. And this process helps them make connections among different areas. Sounds a lot like STEAM, doesn't it? STEAM is all about discovery and problem solving. So, it's a great match for project-based learning.

References

1. Aho, A. V. (2012). Computation and computational thinking. *Computer Journal*, 55(7):832 – 835.
2. Antola Crowe, H., Brandes, K., Davison Avilés, B., Erickson, D. & Hall, D. (2013). Transdisciplinary teaching: Professionalism across cultures. *International Journal of Humanities and Social Science* 3(13).



PRAGMATIC ANALYSIS OF STYLISTIC DEVICES IN ENGLISH AND UZBEK TEACHING METHOD

Karimova Khalima Po'latvoy qizi,

an English teacher of Namangan State University

Annotation: This article is devoted to identify pragmatic analysis of stylistic devices in English and Uzbek teaching method. When, however, we perceive two meanings of the word simultaneously, we are confronted with a stylistic device in which the two meanings interact. Stylistic devices refer to any of a variety of techniques to give an additional and/or supplemental meaning, idea, or feeling.

Key words: stylistic devices; Uzbek language; English language; metaphor; metonymy; hyperbole; translation; active; source language; target language.

In recent years pragmatic analysis refers to a set of linguistic and logical tools with which analysts develop systematic accounts of discursive political interactions. What is pragmatics? Borrowed from philosophical and semiotic concepts, the term “pragmatics” has received a variety of interpretations in linguistics. Pragmatics is the study of invisible meaning in a piece of text spoken or written. It discusses how we recognize the invisible meanings in a text. It is the context based study including linguistic context, thematic context, pre-existing knowledge and physical context of the text. E. Aznaurova believes that the pragmatic aspect of speech research involves considering an interactive block in a broad social context. The pragmatic analysis of the text follows from the functional one, logically continues and develops it. Linguistic pragmatics includes issues related to the subject (the author of the text), the addressee (the reader) and, most importantly, with their interaction in the act of communication. Pragmatic analysis reveals these interactions between the author and the reader, establishes the measure of useful information in the text, focusing on the typology of the reader’s address. Pragmatic analysis underlies the theory of discourse. The peculiarities of Uzbek literary texts in its origin language, the author’s style and expressions, linguistic and stylistic approaches of the text include the transmission to target language, the ways and methods that can determine those peculiarities in English language. The identification of proper equivalency to source text stylistic devices and expressive means, the methods of preserving semantic meaning of source text stylistic devices into target text according to linguistic, extra-linguistic and socio-cultural approaches. That stylistic device in the source text is belonged to socio-cultural aspects of original language representatives that cannot be familiar to foreign language readers. The stylistic devices are neutralized in English version. This kind of differences we can observe in the following example whereby the translator describes by word combinations of the given word play stylistic device in source text. In source material: Og’ayni-jamoalar birovu u dedi, birovi bu dedi. In English: Friends and relatives expressed their own opinions. Comparatively, the author used widely the word plays, simultaneously occurred by demonstrative pronouns in the sentence. The Uzbek words “U” and “Bu” belong to the same grammar and meaning. It activates the meaning of the passage by playing them into the sentence. The translation process cannot borrow that puns as a stylistic device in target language, otherwise it may lead to confusion of meanings in target text. The translation expresses through the word combinations, that preserve the structure and meaning by generalizing them. Below we consider another way to elaborate the stylistic devices and expressive means from source text to target text. In the source material: Sag’ir yangamga yaxshi ko’rinayin deya, o’ziday satillarda suv tashidi. In English language: The orphan pretending a good girl, carried big pails the size of her own. The source text is given description of the thing and person through the simile, the stylistic device that compares two things related to different classes. The Uzbek version simile “o’ziday satillarda” conveys the similarity of two things, where the English version “big pails the size of her own” enhances the exaggeration of meaning in the sentence. The translation process can not use the same stylistic device by adding the auxiliary words of simile “like” or “as” though they may reduce the colorfulness of the content and leads to confusion, by saying “big pails like her” may contribute insufficient image to foreign readers. Instead, the translator contributed to create another stylistic device, hyperbole in target language, in order to convey the deep impressiveness to foreign readers and



appropriate sub-equivalent stylistic device rather than simile that used by author above. In source language: Cho'g' Oymomo yuzlaridan, Oymomo yuzlari cho'g'dan qolishmadi. In English version: Ashes were like Oymomo's face, Oymomo's face was like ashes. The Uzbek version the similarity of two things described through the parallel construction. In source text we can not identify the direct simile which can be used by the author. Together, these are known as literary devices. Both are important to purposely teach and develop. The peculiarities of Uzbek literary texts in its origin language, the author's style and expressions, linguistic and stylistic approaches of the text include the transmission to target language, the ways and methods that can determine those peculiarities in English language. The identification of proper equivalency to source text stylistic devices and expressive means, the methods of preserving semantic meaning of source text stylistic devices into target text according to linguistic, extra-linguistic and socio-cultural approaches. The translator's attitude towards the original source literary text and the translation to target language. The preservation of the semantic meaning of the source text into target text according to the equivalents norms and correspondences which has been chosen by the skills of translators. Levels as equivalent, sub-equivalent and non-equivalent or descriptive in a role of conveying the stylistic devices and expressive means into target language. According to extend of research paper we tried to analyze active stylistic devices metaphor, metonymy and hyperbole used in Uzbek and English language humorous texts. We know that emotional-subjective evaluating; determining linguo-stylistic elements are one of the main problems of literary speech stylistics. This problem is very important in analyzing humorous texts, because emotional effect is considered very important aspect in this genre. Stylistic devices are used more in not only Uzbek and English nations' but also all nations' humorous texts and it is very important in creating humour. Usually the function of ridiculous is considered differential feature among stylistic devices. According linguistic and stylistic units' distinctions of both languages, the translation process repudiated the repetition, in order to preserve the semantic meaning and linguistic structure between source text and target text. Both languages composed the same stylistic device in the sentence. Anaphora, the type of repetition has been used in both languages. Consequently, the chosen stylistic device is completely equivalent to the source material, as the property of source text is preserved in target text, in accordance with linguistic and stylistic language units. The above mentioned examples co-related along with author's style in using the expressive means and stylistic devices in his fiction must be realized by the translator in the all-widely formats of aspects, such as linguistic, extra-linguistic, lexical, phraseological and stylistic units during the translation.

To conclude, it has to be mentioned, that the preserving of semantic meaning of stylistic units depend on co-relation of both interlingual communicative approaches. In any other methods, the communicative approaches should be rendered from source text to target text. The semantic structure of the sentence has to be conveyed from one language to another according to both languages' linguistic, extra-linguistic, lexical and stylistic perspectives.

References:

1. As-Safi, A. B. (2011). Translation theories: Strategies and basic theoretical issues. Al Manhal.
2. Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation (Vol. 11). John Benjamins Publishing.
3. Watson, G., & Zyngier, S. (Eds.). (2006). Literature and stylistics for language learners: Theory and practice. Springer.



MILLIY QADRIYATNI IFODALOVCHI “OILA” LEKSEMASINING LUG’ATLARDA IFODALANISHI

Ishqobilova Hulkar Shaydulla qizi
O’zDJTU, o’qituvchi, Stud1381@mail.ru

Annotatsiya: Oila bu jamiyatning bir bo’lagi sifatida har bir millatda o’z mavqeiga ega. Va bu tushuncha ingliz va o’zbek tillarida ham milliy qadriyat sifatida ulug’lanadi. Chunki oila bu jamiyatning bir bo’lagidir va shundan hech kim ayro holda yashay olmaydi. Oilaning inson hayotidagi o’rni juda ham ahamiyatlidir. Shu jumladan oila so’ziga lug’atlarda ta’rif berilgan.

Kalit so’zlar: matrilokal, nuclear, sotsiolizatsiya, oilaviy munosabat, jamiyat Oila so’ziga o’zbek tilining izohli lug’atida quyidagicha ta’rif beriladi. “Oila-[bola, chaqa, xonadon; urug’, avlod]

1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug’ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon. *Axil oila, San’atkorlar oilasi, Oila boshlig’i. [Eshvoy] Kambag’al bo’lishiga qaramay Yo’lchining oilasiga yordam ko’rsatar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Oilaning har bir a’zosi o’z ishi, yumushi bilan mashg’ul.* H-Rulom, Mash’al. *Birovga qiziqish, oila qurish. Bu gaplar Zamirani cho’chitar, Ochil uni yomon yo’lga boshlayotganday tuyulardi.* P. Qodirov, Uch ildiz.

Oilani buzmoq. Er-xotinlikni tugatmoq, ajralmoq. *Jaxl ustida urushib qolgan bo’lsangiz, ehtimol. Qaynatangiz, qaynanangiz kelib qolishar!* Mirmuhsin, Umid.

2. **ko’chma** Bir maqsad maslak bilan birlashgan ko’p kishilar, xalqlar, mamlakatlar. *O’zbekistonda turli millat vakillari bir oila bo’lib yashamoqdalar.* Gazetadan. –*Butun askarlar bir oila, axil, mehribon va qalin do’stmiz,- dedi Bektemir.* Oybek, Quyosh Qoraymas.

3. O’simliklar va hayvonlar tuzilishidan bir-biriga kelib chiqish jihatdan ham o’zaro yaqin bir necha urug’ni o’z ichiga olgan guruh- *Dukkaklilar oilasi. O’rdaktumshuqlilar oilasi, Turpbutaguldoshlar oilasiga mansub ikki yillik, ildizmevali ko’kat o’simligi deyishadi botaniklar.* K. Mahmudov, qiziqarli pazandalik.

4. Qardosh tillar guruhi. *Oltoy tillar oilasi. Som-hom tillari oilasi*
s.t. Rafiq, xotin. *Oilam maktabda o’qituvchi.*

Yuqorida ko’rganimizdek oila so’zining o’z va ko’chma ma’nolari mavjud. Bu atamaning izohli lug’atda berilgan ma’nolaridir. Bundan tashqari ham oila tushunchasining boshqa ma’nolari, uning etimologiyasi haqida ham ma’lumotlar mavjud. Masalan, oilani antropologlar:

Matrilokal (ona va uning bolalari)

Nuclear (er-xotin, bolalari)

Qon-qarindosh (nuclear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Bundan tashqari oila haqida qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog’langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir degan tushuncha ham mavjud. Ko’p jamiyatlarda oila bolalar sotsializatsiyasi uchun asosiy institut vazifasini o’taydi.

Oila- nikoh yoki tug’ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro’zg’orining birligi, o’zaro yordami va ma’naviy ma’suliyati bilan bir-biriga bog’langan. Oilaning jamiyat oldida muhim vazifalari ham mavjud. Bular:

-Inson zotini davom ettirish

-bolalarni tarbiyalash

-oila a’zolarining turmush sharoitini va bo’sh vaqtini samarali uyushtirishdan iborat.

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsada jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o’zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o’zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o’rnatadi.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo’lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to’da -to’da bo’lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib -qoidaga ega bo’lmay, to’dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta -sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota –ona bilan farzandlar, so’ngra aka –uka va opa –singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib guruxli oila paydo bo’lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati”, 2009, b. 707-08

2. “Izohli ommabop lug’at, Sharq”, 2009, 558-bet

3. “O’zbek tilining izohli lug’ati. 5 jildli/ A. Madvaliyev tahr. Ost-Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.



MILLIY QADRIYATLARNI IFODALOVCHI “ANDISHA” LEKSEMASI VA UNING ASARDA IFODALANISHI

Ishqobilova Hulkar Shaydulla qizi
O'zDJTU, o'qituvchi, Stud1381@mail.ru

Annotatsiya: Albatta milliyligi yo'q davlat davlat hisoblanmaydi, uni hojlagan odam qo'lga olishi mumkin. Shu bilan bir qatorda shunday milliy qadriyatlar borki, u har bir xalqda mavjud, lekin ularning namoyon bo'lish usuli, darajasi va qaysi jabxalarda namoyon bo'lishi bir-biridan farq qiladi.

Kalit so'zlar: hayo, sharm, vafo, milliy ruh, milliy qadriyat

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning ham asarlari bugungi kunda kitobxon qalbidan chuqur joy egallagan. Ayniqsa adibning “Ikki eshik orasi” romani qayta-qayta juda ko'p adadda nashr etilgan bo'lsada, bu asarga kitobxonlarning talabi hamon susaygani yo'q va bu asar mumtoz asarlar qatorida o'z zamonaviyligini yo'qotgan emas. Bu roman o'tgan va bugungi avlodlargagina emas, keying avlodlarga ham sevimli asar bo'lib qolishi shubhasiz. Chunki u milliy ruhda, milliy qadriyatlarimizni ulug'lagan tarzda yozilgan. Barchamizga ma'lumki o'zbek xalqida qadimdan qiz bolani turmushga berish alohida mavzu sifatida qaralgan. Qiz bolaga unga turmush qurishni taklif qilmoqchi bo'lgan yigitlar haqida gapirilmagan. Gapirilsa ham qiz bolaning andishasini sinash uchun ataylab gapirilgan. Asarda ham qo'shnilar Robiyaning ibo-hayosini sinash uchun unga sizni turmushga beramiz deganlarida Robiya uyatdan qizarib, olovdek yonib, sakrab qo'shni uydan uyalib chiqib ketishlari qiz bolaga xos bo'lgan andishani yaqqol tasvirlab bergan.

O'zbek tilida bu atamaning ko'plab ta'riflari mavjud. Masalan:

Andisha[fors. o'y, mulohaza, fikr, or-nomus, iffat, sharm-hayo, uyat, ibo, istihola, bosiqlik]-yuksak ma'naviyatga xos tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviy-ahloqiy tushuncha bo'lib, kishidagi hulq odob, tarbiya va ma'naviyat bilan bog'liq sifatlarni ifoda etadi. Andisha inson tabiyatida chuqur ildiz otgan, tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladigan ilm va hikmatga boy xalqning tafakkur bulog'idan suv ichgan ma'naviy xodisa. Andisha asrlar davomida ardoqlanib ajdodlardan avlodlarga me'ros bo'lib o'tmoqda. Andisha iffat, sharm hayo, uyat, istihola, or-nomus kabi odob axloq tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Andishali inson xamisha aql idrok va hokisorlik bilan ish yuritadi, betga choparlik qilmaydi, o'z xatti harakatining oqibatini o'ylaydi. Andishali kishi xech qachon o'zgalarning izzat nafsigaga tegmaydi, yoshi ulug'larning ayollarning xurmatini joyiga qo'yadi. Qilayotgan xar bir ishiga bosiqlik bilan yondoshadi, shoshma shosharlik, o'zi bo'larchilikka yo'l qo'ymaydi. Andishali odamlarda o'z xalqi va millati taqdiriga nisbatan mas'uliyat hissi yuqori bo'ladi. Ular nafaqat o'z xalqi, millati, balki boshqa xalq, millat va elatlarga ham xurmat bilan qaraydi. Bag'ri kenglik andishali odamlarga hos hususiyatlardan biri. Andishali odamlar nojo'ya harakatlardan o'zini tiya oladi, o'zgalarga ham nojo'ya ishlarni ravo ko'rmaydi.

Hadislarda aytilganidek andishali inson “Odam, eng avvalo, o'zidan uyalishi kerak” degan aqidaga amal qiladi. Hazrat Alisher Navoiy bejiz andisha, vafo va hayoni ahloqiy fazilatlar ichida birinchi o'ringa qo'ymaganlar. Andishali odamlar o'z qadru-qimmatini hamisha yuqori tutadi va boshqalarga ham shuni ravo ko'radi.

Andishali, or-nomusli, sharm hayoli odamlar elim yurtim deb yashaydi, o'zgalarga muruvvat qilishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun insoniy burch va mas'uliyat deb biladi. Andishali kishilarda milliy g'urur, milliy iftixor oriyat kuchli bo'ladi. Ular o'z millati, el ulusi manfaati va sharafiga himoya qilishni katta baxt deb biladi.

[Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati, 2009, b.32]

O'z navbatida andisha so'zining ma'nodoshi sifatida xayyo so'zi ham ishlatiladi va unga quyidagicha ta'rif beriladi: “uyat, sharm, or-nomus, kamtarlik, adab] Nojo'ya, noma'qul xatti-harakatlardan tiyilish hissi; uyat, sharm.

Vafosizda xayyo yo'q,

Xayyosizda vafo yo'q.” [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006, b. 475]

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat va uning asoschisi bo'lgan prezidentimiz Islom Abduq'aniyevich Karimovning asarlarida ham milliy qadriyatlarimizning millatimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyati hususida bir qancha fikrlar berib o'tilgan. Jumladan prezidentimizning, albatta O'rta Osiyo muhitida jamoa, mahalla, bo'lib bir-biriga mehr-oqibatli bo'lib yashaydigan



insonlar, davr qanchalik o'zgarmasin, tarix sinovidan o'tkan o'z qadriyatlariga sodiq bo'lib yashashni ma'qul ko'rar ekan, buni zamonaviy fikrlaydigan dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to'g'ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

...insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa avvalambor uni qurolsizlantirishga ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urunadi. [Karimov, 2010, b.75]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati, 2009, b.32]
2. [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006, b. 475]
3. "Ikki eshik orasi" O'tkir Hoshimov.



SINONIM SO‘ZLARNING NUTQNI BOYITISHDAGI O‘RNI

Mahmudova Roziya Furqat qizi

Termiz davlat universiteti
filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi sinonim so‘zlar va ularning tadqiqi hamda sinonim so‘zlarning nutqni boyitishdagi uslubiy vazifasi haqida mulohazalar yuritilgan. Sinonimlarning o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘rni borasida fikrlar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sinonim, sinonim so‘zlar, eskirgan so‘zlar, umumiste‘mol so‘zlar, nutq uslublari.

So‘z, nafaqat, ifoda xususiyati bilan, balki nutq uslublari xosligi, qo‘llanilishga ko‘ra tarixiy va zamonaviyligi, shuningdek, so‘z ma‘nosidagi bo‘yoqdorligi, faol va nofaol qo‘llanilishi ham bir-biridan farqlanadi. Shunga ko‘ra, “So‘z tilning murakkab hodisalaridan biri bo‘lib, barcha til hodisalari orasida alohida, markaziy o‘rinni egallaydi.¹ So‘zning murakkab hodisa ekanligi, uning nutqiy jarayondagi reallashish holatlari bilan ham bog‘liq. Binobarin, so‘z nutqiy jarayondagi ifoda xususiyatlari bilan turli ma‘nolarda qo‘llanilishi, tilning adabiy va noadabiy shakllariga xosligi kabi turli jihatlari bilan ham xarakterlanadi. So‘z bilan bog‘liq tilshunoslikdagi muhim muammolardan biri tilning lug‘at tarkibi va uning lug‘aviy boyligi masalasidir. Avvalo shuni ta‘kidlash joizki, tilning lug‘aviy boyligi tildagi so‘zlarning miqdori bilan belgilanadi.

Tilning lug‘at tarkibi bilan bog‘liq muhim jihatlardan biri har bir so‘zning tilda o‘z o‘rni borligi, shunga asosan, so‘zlar baholanganda ularga bir xil asosdan yondashishdir. Biroq so‘zlar funksional xususiyatlari bilan farqlanadi. Shunday so‘zlar borki, ular umumxalq toroidal qo‘llaniladi, bunday so‘zlar umumiste‘mol so‘zlari deb yuritiladi. Shuningdek, tildagi ko‘pgina so‘zlar tor doirada qo‘llanilishi bilan ham farqlanadi. Tildagi lug‘aviy birliklarning asosiy qismi lug‘aviy ma‘noli so‘zlar bo‘lib, bir xil ma‘noni ifodalaydigan so‘zlarning ma‘lum qismi ma‘noning turli bo‘yoqlarda ifodalanishi so‘zning muhim xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi. Bir xil ma‘noni turli bo‘yoqlarda ifodalaydigan so‘zlar ma‘nodosh (sinonim) so‘zlar bo‘lib, ushbu maqolada sinonimlar va ularning nutqiy xususiyatlari haqida mulohazalar bildirmoqchimiz. Professor A. Hojiyev sinonimik so‘zlarga xos quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi: Sinonimik qatordagi so‘zlar tushunchaning belgisini turli darajada ifodalaydi. Ular emotional bo‘yoqdorlikka ko‘ra farqlanadi. Nutqning biror turi, uslubiga xoslanadi. Hozirgi adabiy til nuqtayi nazaridan eskirgan bo‘ladi, dialektlarga xos, ko‘p yoki oz qo‘llaniladi.²

Ana shu xususiyatlarga ko‘ra, nutqda sinonimlarning qo‘llanilishi stixiyali tarzda emas, balki nutq egasining ongli faoliyati tildan foydalanish mahoratini namoyon etuvchi vositaga aytiladi. Sinonimlarning uslubiy xususiyatlarini farqlagan holda nutqda qo‘llash natijasida bir xil tushunchaning turli darajalarda ifodalash imkoniyati vujudga keladi. Boshqacha aytganda, bir tushuncha bir necha lug‘aviy vosita orqali ifodalanadi. Shunga ko‘ra, tilshunoslikda sinonimlar til boyligi deb yuritiladi. Masalan, «Oxiri chegarasi yo‘q» ma‘nosini ifodalash uchun o‘zbek tilida cheksiz, chegarasiz, poyonsiz, bepoyon, so‘ngsiz kabi lug‘aviy vositalari ishlatiladi. Muhimi shundaki, bu lug‘aviy vositalar bir-biridan so‘z ma‘nosidagi emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi yoki belgini ortiq-kam darajada ifodalashi bilan farqlanmaydi. Biroq ularni nutqda doimo ham birning o‘rnida ikkinchisini ishlatib bo‘lmaydi. Ikromjonning bag‘rini kuydirayotgan alam bu poyonsiz to‘qaylarga, oy nuri ojiz yoritib turgan so‘ngsiz cho‘llarga sig‘masdi. (S. Ahmad «Ufq») gapida qo‘llanilgan poyonsiz, so‘ngsiz sinonimlari ma‘no nozikliklari mavjudligi bilan farqlanmasa-da, ularni o‘rnining almashtirish nutqiy ta‘sirchanlikni buzadi. Buning sababi har bir so‘zning nutqdan boshqa so‘zlar bilan birikish holatiga mos bo‘ladi. Shuningdek, bir gapda sinonimlarning turli shakllarda ishlatishda yoqimsiz so‘z takrorining oldini olish maqsad qilib olinadi. Sinonim so‘zlarning nutqiy vazifasi xilma-xil. Sinonimlar yordamida fikr aniq ifodalanadi. Nutq egasining shaxsga, narsa-hodisaga bo‘lgan munosabatlarini aniq izohlanishida sinonimlar qo‘l keladi. Masalan, Quyuq qorong‘ulikda otlarning taqalari ko‘cha toshlariga urilib uchqun chiqaradi. Havodan yomg‘ir hidi keladi, mayin shabada esadi. (P. Vohidov “Bobur”) gapidagi shabada so‘zi shamol, yel sabo so‘zlari bilan sinonim bo‘lib, shu sinonimik qatordagi so‘zlarga

1 Tursunov U, Muxtorov N, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: O‘qituvchi. 1975 – b. 57.

2 A. Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1974-B.4.



nisbatan kuchsiz esuvchi shamol ma'nosini ifodalanishi bilan farqlanadi¹. Ushbu gapdagi shabada so'zining mayin epiteti bilan qo'llanilishi ham bir tipdagi hodisaning birini boshqasiga nisbatan o'zgacha baholanganligini bildiradi.

Sinonimlarni boshqa so'zlardan farqlanuvchi muhim jihatlaridan biri emotsional jihatdan bo'yoqdorligidir. Bu holat ham nutqda sinonimlardan mosini tanlab ishlatish lozimligini taqozo qiladi. Kuchli esadigan shamol ma'nosini ifodalash uchun bo'ron, dovul so'zlari qo'llaniladi. Ko'rinadiki, yuqorida keltirilgan “mayin shabada” ma'nosini ifodalashda dovul yoki bo'ron so'zlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu so'z sinonimlarning til lug'at tarkibidagi o'ziga xos muhim lug'aviy birlik ekanligini ko'rsatadi. Ko'rinadiki, sinonimlarning ma'no ifodalashdagi darajalanishi uslubiylilik xususiyatlari nutqning ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim jihatlaridir. Ana shu xususiyatlariga ko'ra, sinonimlardan nutq jarayoniga mosini tanlab, ishlatish asosida nutqiy rang-baranglik ta'minlanib, nutqning badiiy ta'sirchanligi kuchayadi.

Sinonimik qatordagi so'zlarning bir qismini nutqning muayyan turiga xoslanganligi shu turdagi so'zlarning muhim xususiyatlaridan biridir. Ko'rinadiki, sinonimik qatorlarning hosil bo'lishi uchun ham turli omillar sabab bo'ladi. Bunday omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1. So'zlarni ma'lum nutq turlariga xoslanganligi: samo (badiiy nutq), osmon (umumiy iste'molda); do'ndirmoq (og'zaki nutq), bajarmoq (umumiste'mol));

2. Sinonimik qatordagi so'zlardan birini adabiy til nuqtayi nazaridan eskirganligi: abr (eskirgan), bulut (zamonaviy); xilqat (eskirgan), dunyo (zamonaviy);

3. Umumiy tushunchaning turli darajalarini ifodalaganligi: bet (oddiy darajadagi salbiy bo'yoq), turq (kuchli darajadagi salbiy bo'yoq); chehra (oddiy darajadagi ijobiy bo'yoq): Chehrasidan nur yog'iladi, jamoling o'xshatdim osmonda oyga kabi.

4. Sinonimik qatordagi so'zlarning turli tillarga mansubligi. Masalan, “mangulik” ma'nosidagi abadiy so'zi-arabcha, mangu-mog'ulcha, umrbod-fors-tojikcha kabi.

Qayd etib o'tilgan jihatlar sinonimlarning tilning lug'aviy tarkibidagi muqim lug'aviy birlik ekanligini, ulardan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish, nutqni jilolantiruvchi, ma'noning butun nozikligi bilan ifodalash imkoniyatini yaratuvchi lug'aviy vositalar ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov U, Muxtorov N, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: O'qituvchi. 1975 – b. 57.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan. 1985.-B10.
3. A. Hojiyev. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1974.-B.4.
4. 2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari .Tashkent: Fan 1985.-B10.

¹ Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Tashkent: Fan. 1985. –b. 10



SURXONDARYO VOHASI GILAMCHILIK ATAMALARINING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

Ibragimova Nodira Javliyevna

Terdu lingvistika (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo vohasi gilamchilik atamalarining ma'naviy xususiyatlari haqida fikr mulohazalar bildirilgan. Voha gilamchilik atamalarining lug'aviy ma'nolari izohlangan holda, hudud gilamchilik leksikasining o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: gilamchilik, to'qimachilik, o'rmak, kalava, orqov, qilich

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelgan. Turli xom-ashyolardan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Bu soha qadimdan paydo bo'lgan bo'lib, bugungi kunda ham kundalik hayotimizda alohida ajralib turadi.

Surxondaryo viloyati hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib, ayniqsa, to'quvchilik hunarmandchilikning keng rivojlangan sohasidir. Ushbu hududda hunarmandchilikning to'quvchilik yo'nalishi bo'yicha ko'plab turi: gilamchilik, namat to'qish, chiy to'qish, bo'ya to'qish, chiroz to'qish, bo'z to'qish, savat to'qish, jamalak to'qish keng tarqalgan.

Surxondaryoliklar asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi uchun to'quvchilikda xom-ashyo sifatida jun va paxta mahsulotlaridan foydalanadi. Ular o'rmak to'qishni asosiy ish-faoliyat turlaridan biri deb biladilar. Gilamchilik qadimdan ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilib kelingan sohadir. Tarixshunos olim V.G.Mashkova gilamchilik san'ati tarixini haqli ravishda eramizdan avvalgi ming yilliklar madaniyati bilan bog'laydi. Qadimshunos olim G.A. Pugachenkova sak, so'g'd va massagetlar, ya'ni qadimgi ajdodlarimiz gilamdo'zlikni eramizdan avvalgi III-II asrlarda ommaviy ravishda yo'lga qo'yilganligini e'tirof etadi¹.

Surxon vohasi to'quvchi hunarmandlarining faoliyati bilan bog'liq narsalar o'zbek tilining lug'at tarkibidan o'rin olgan, xususan, gilamchilikda ishlatiladigan so'zlar to'quvchilik bilan bog'liq bo'lgan leksik qatlamda o'ziga xos o'ringa ega. Masalan, Orqov, qilich, odarg'i, kizuv, seriv, qoziq, dasta, arqon ip, uch yog'och (Sho'rchi, Qumqo'rg'on hududlarida o'rkach deb ataladi), ilgak sim (ba'zi hududlarda kindik sim deyiladi), orqaliq, turli ip, shordozi kabi lug'aviy birliklar gilamchilikka xos muhim so'zlar hisoblanadi. Qilich - qattiq tut yoki o'rik yog'ochidan yasalgan 60-70 smlik to'quv dastgohi, shakli qilichni eslatgani uchun shunday nomlanadi, u orqov o'tkazgan ipni urib mustahkamlaydi. Orqov - kalava ipning qora rangidan olinib, 35 smlik cho'pga o'raladi va u o'rmak orasidan o'tkazib turiladi. Odarg'i - birini balanddan, birini pastdan olib beradigan asbob. Seriv - o'rmakning enini chiqarib beradigan yog'och. Uch yog'och (o'rkach) kizuvni ushlab turadi. Ilgak sim - o'rmakka gul chiqarish uchun ishlatiladi. Orqaliq - seriv cho'pdan orqada turadigan yog'och. Turli ip - kalava ip gul deb nomlangan bo'yoq yordamida turli ranglarga bo'yali, ushbu ipni hosil qiladi. Shordozi - o'rmakni birlashtirib tikadigan ip.

Voha hunarmandlari qadimdan sodda to'qilgan qoqma gilamdan tortib taqir gilam, shoyi (atlas) gilamlargacha tayyorlashgan. Hozirgi kunda ham xonadonlarda to'quvchilik asosida yaratilgan tuz xalta, dasturxon, xurjunlar, qop va egar jabduqlarini uchratish mumkin².

Vohada to'quvchilik san'atini namoyon qiladigan gilam turlaridan biri qoqma gilam bo'lib, u orqov (ko'ndalang o'tkazilgan ip) qilich bilan urib-qoqib to'qilganligi uchun shu nom bilan ataladi. Ushbu gilamning eng sodda to'qilgan turi taxta gilam bo'lsa, eng murakkabi esa g'ojari gilamdir.

Surxon vohasida gilamlarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: bibishak (10 sm oddiy to'qilib, 10 sm gul chiqarib to'qilgan gilam), chimchiqko'z (shaklida chumchuq ko'ziga o'xshagan nuqtalar keltirilgan), sara gilam (gulsiz gilam), qo'zitish (nomoz o'qiladigan gilam), atlas (shoyi) gilam, taqir gilam (archagul nusxa chiqarib, taroq bilan to'qiladigan bilan), qulfi-kalit gilam (bir-biriga qarama-qarshi shaklda tushirilgan, shoxdor qo'chqor kallasini eslatuvchi shakl bo'lib, u xonadon eshigi do'sti uchun ochiq, dushmani uchun yopiqligini bildiruvchi ramz hisoblanadi), ittovon gilam (bunda gilamning to'rt burchagiga to'rtta no'xatdek hol

1 Tursunov S, Pardayev T v.b. O'zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy san'at yodgorliklari tarixi -Termiz: Surxon nashr nashriyoti, 2017.- B.240.

2 Tursunov S., Pardayev T. Ko'rsatilgan asar.- b. 240.



tushiriladi, chillali kelinchak hamda yosh go‘dakni yomon ko‘zlardan asrash maqsadida qilinadi), tovuqko‘z gilam (vohada naqsh chiqarib to‘qilgan gilam shunday namlanadi), pichoq uchi gilam (Sherobod, Boysun hududlarida xanjar uchi gilam deyiladi. Nusxada pichoqning uchiga o‘xshash uchburchak shakllar keltiriladi), taxta gilam (gul chiqarmay to‘g‘ri shakllarda to‘qilgan gilam) va boshqalar. Gilam to‘qishda qo‘y juni yoki paxtadan tayyorlangan iplar ishlatiladi. Gilam qilish uchun bahorgi jun ishlatiladi. Kuzgi jun esa kigiz qilishda ishlatiladi. Chunki kuzgi jun mustahkam bo‘ladi¹Tozalangan paxtadan gilam, xurjun, chakmon, qora uylar uchun arqon ayil kabi buyumlarni tayyorlash uchun urchuqdan foydalaniladi²Tuksiz gilam bu qoqma gilam deb nomlanadi. Qoqma gilam dastgohi tarnovoy bo‘lib yerga quriladi. Qoqma gilamlar yo‘l-yo‘l ranglardan iborat bo‘lib, uzunasiga to‘qiladi. So‘ngra kesilib tumorcha tikish orqali bir-biriga biriktiriladi.

Qoqma gilamni to‘qish va uni tayyorlash bilan bog‘liq ravishda til lug‘at tarkibida quyidagi lug‘aviy vositalar kirib keladi: tuksiz gilam, orqov, qilich, odarg‘i, kizuv, seriv, qoziq, dasta, arqon ip, uch yog‘och, turli ip, kindik sim, ilgak sim, o‘rkach, orqaliq, shordozi, qoqma, chimchiqko‘z, g‘ojari, pichoq uchi, xanjar uchi, bibishak, taqir, archagul, taroq, tovuqko‘z, sara gilam, qo‘zitish, gulsiz, atlas gilam, shoyi, qulfi-kalit, ittovon terma gilam, qirqib olmoq, uzib olmoq, shol, kalava ip, ona gilam, tarnovoy, tumorcha tikish, o‘rmak, bahorgi jun, kuzgi jun, juvoldiz, urchuq kabilar. Gilam to‘qishni keksa yoshli onaxonlarimiz boshlab berib, yo‘l-yo‘riqlarini qiz-juvonlarga o‘rgatishadi. Shu tariqa bitta gilamni 5-6 kunda, ba‘zilar esa 3 kunda to‘qib bo‘lishadi. Uzun qilib to‘qilgan gilamni uzib olishadi (hunarmandlar tilida shunday). O‘rmakning tugashiga bir metr qolganda ish to‘xtatiladi. Agar oxirigacha to‘qiladigan bo‘lsa, u tortilib, uzilib ketishi mumkin. So‘ngra uni shol, ya‘ni teng qismlarga bo‘lib qirqishadi va har bir qismni shordozi ip bilan juvoldiz(katta igna) yordamida birlashtirib tikishadi. Ishning so‘nggida esa gilamning chekkalarini, ya‘ni qirqilgan tomonlarini so‘kilib ketmasligi uchun oq-qora shordozi ipda aylantirib tikib chiqiladi. Surxondaryoliklarda shunday odat bor: qiz bolani turmushga berayotganda uchta va undan ortiq to‘qima gilami bo‘lmasa, uyat hisoblanadi. Bunday gilamni ona gilam deb atashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov S, Pardayev T v.b. O‘zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy san’at yodgorliklari tarixi -Termiz: Surxon nashr nashriyoti, 2017.- B.240.
2. Tursunov S., Pardayev T. Ko‘rsatilgan asar.-B. 240.
3. Tursunov S., Pardayev T. v.b. O‘zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi- Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2012.-B.102
4. Tursunov S. Surxondaryo etnografiyasi-Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2020.- B.85.

1 Tursunov S., Pardayev T. v.b. O‘zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi- Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2012.-B.102

2 Tursunov S. Surxondaryo etnografiyasi-Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2020.- B.85.



SALIM ASHUR IJODIDA MILLIY VATANPARVARLIK RUHINING AKS ETISHI

Ro‘zimurodova Norbibi

ilmiy tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoirning Vatanga bo‘lgan muhabbati, shoirona qarashlari va munosabatlari yoritilgan. Vatan mavzusidagi ayrim she‘rlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Salim Ashur, Vatan tushunchasi, adabiy-estetik qarash, lirik qahramon.

Аннотация: В данной статье описывается любовь поэт к Родине, его поэтические взгляды и настроения. Анализируются некоторые его стихотворения на тему родины.

Ключевые слова: С.Ашур, концепт Родины, литературная эстетика, лирический герой.

Annotation: This article describes the poet's love for the Mathur land, his poetik views and attitudes. Some of his poems on the home land are analysed.

Keywords: S.Ashur concept of home land, literary aesthetics, lyrical hero

Mustaqillik davri adabiyoti XX asr o‘zbek xalqining boy madaniyati va badiiy tafakkuri tarixida alohida o‘ziga xos bosqich sanaladi. Ayniqsa, mustaqillik davri she‘riyatini alohida urg‘u bilan ta’kidlash lozim. Bu davr she‘riyati istiqloq yillarida o‘ziga xos yangi adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘la boshladi. Badiiy ijod maydonida shoirlar uchun erkin ijodiy muhit yuzaga keldi. “Istiqloqning ilk davrlaridan boshlab badiiy adabiyotda ham erkin tafakkurning tajassumi bo‘y ko‘rsata bordi. Yangilanayotgan badiiy tafakkurning subyektivi o‘zining ifoda usullarini turlicha shakl shamiyillarda taqdim etib boshladi” [1,46]. Shoirlar o‘z ma’naviy dunyosini, olam va odamga doir qarashlari, individual his-tuyg‘ularini bor holicha taqdim qila boshlashdi. Ma’furaviylashgan eski adabiy siyosatdan boshqacha ya’ni inson erkini qadrlash, Vatanning chin saodati, buyuk kelajagi uchun qayg‘urish, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e’zozlash kabi qator mavzular bu davr she‘riyatida yetakchilik qildi.

Vatan - ijod ahlining yuragiga eng yaqin, juda muhim va doimiy mavzu. O‘zbek adabiyoti tarixida yurtning go‘zal tabiatini, osmono‘par tog‘larini, dala-dashtlarini, bepoyon qirralarini, bebaho ma’danlarini madh etgan she‘rlar ko‘p yozildi. Tabiiyki, bu muazzam va muqaddas Vatan borligi faqat moddiy ne’matlardangina iborat emas. Vaholanki, istiqloq yillarida Vatanni chin dildan sevadigan, haqiqiy vatanparvar ijodkorlarimiz maydonga keldi. Shoir Salim Ashurni ham ushbu ijodkorlar safiga qo‘shsak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoirning Vatanga, Ona - diyoriga bo‘lgan mehr-muhabbatini ifodalovchi she‘rlari tahsinga sazovor. Shoir o‘zining she‘rlarida oddiy xalq tilidan foydalanadi. O‘zini shu xalqning kamtarona farzandi ekanligidan faxrlanadi. Vatanga bo‘lgan mehri cheksizligi bois unga “Siz” deb murojaat etadi. O‘ziga xos bo‘lgan tashbehlardan ham o‘rinli foydalangan. Vatanni eng yaqin insonlariga o‘xshatishi ham, unga bo‘lgan mislsiz hurmat namunasidir.

Onam kabi suykalsam sizga,
O‘g‘lim kabi erkalasaydim.
O‘zim kabi suysaydim sizni,
Otam kabi suyansam sizga [2,34].

Lirik qahramonning Vatanga muhabbatini insonning Onaga erkanishiga, Onaning farzandiga bo‘lgan mehriga, insonning og‘ir damlarda hamisha otaga suyanishiga mengzaydi.

Oddiy xalqona so‘zlarni shoirona ustalik bilan she‘rlarida qo‘llash ham shoirning poetik mahoratidan dalolat beradi. Masalan, adabiy tilimizda qo‘llaniladigan “Sinchaloq” so‘zi o‘rnida shevalarimizda keng qo‘llaniladigan “Jimjiloq” so‘zini ishlatadi. Bu so‘z she‘rda ma’no nozikligini berish bilan birga, oddiy kitobxon uchun ham tushunarlidir.

Jimjilog‘im yoki qulog‘im,
Goh sirdoshim, goh o‘rtog‘im.
Guldan yaprog‘ to‘kilar, sizdan
To‘kiladi xushbo‘y - xushbo‘y gul [2,34].

Shoir qalbi Vatan mehri bilan jo‘sh uradiki, buning ma’nosini she‘rlarini o‘qib tushunish mumkin. Shoir tabiat oshig‘i. Uning bu qarashlari she‘rlarida namoyon bo‘lgan. Shoir Vatanni jannatdan ham ulug‘ligiga ishora beradi. Vatan toshini parilar o‘tiradigan to‘shakdan-da a’lo deb tasvirlaydi. Adabiyotimizda Vatan tuprog‘i va uning madhiga ko‘p bora uchraganmiz. Ammo Vatanning toshini bu qadar ardoqlanishi va go‘zal tashbehlardan foydalanishi bu, albatta,



adabiyotimizda Salim Ashurdek qalbi Vatan tuyg'usiga boy ijodkorga xos bir qarashdir: Bu yerlar yuragim mulkidir,

Ko'zlarim mulkidir dala, qir.
Bu yerlar jannatdan ulug'dir,
Har toshda o'tirar bitta pir[2,34].

Inson farzandi doimo his - tuyg'ular quchog'ida yashaydi. Uning nigohida Vatan va unung tabiati oliy darajada tasvirlab berilgan. Uning faoliyatini sinchiklab qarar ekanmiz, tabiatning eng nozik tasviri Vatan tasviri bilan chambarchas bog'liq. Har bir inson boshida tashvish tushadimi, yutuqlarga erishadimi, albatta, otasi ko'z oldida g'aydalanadi. Vatandan ayro vaqtida tug'ilib o'sgan makoni ko'z oldida namoyon bo'ladi. Uning har bir narsasi quyosh, rayhon-u gullari, bolaligi o'sgan tepaliklar, saharlarda shudiring urgan giyohlar ufq payti zarralaridagi quyosh nurlarini zo'r mahorat bilan tasvirlaydi.

Yurakkacha ifor sochgan rayhonlar,
Manglayida quyosh qo'ngan ayvonlar.
Ufqlarda zarlar tergan yo'llarim,
Sizga sog'inchi degan maktub yo'lladim[3,63].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida Vatan va vatan -parvarlik mavzusi eng yetakchi mavzulardan sanaladi. Buyuk shoir bu mavzuni oddiy xalqona, bir so'z bilan aytganda, oddiy qishloq farzandi nigohida tasvirlaydi. U Vatanni borligicha sevadi, unga suyanadi. Doimo Vatan bilan faxrlanib yashaydi. Salim Ashur ijodi orqali kitobxonning ma'naviy sa'viyasi yuksaladi. Vatanga bo'lgan mehr - muhabbat tuyg'usi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raimova S. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida diniy-ma'rifiy mavzuning badiiy talqini. Filol. fan. b.fals. dok. diss...– Toshkent, 2021.
2. Salim Ashur. Darz –T.: “Zarqalam”,2006.
3. Salim Ashur. Muhabbat kitobi. –T.: G'afur G'ulom,2018



МУРОЖААТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ТИЛШУНОСЛАР ТАДҚИҚОТЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Махаммаджанова Наргиза
Андижон давлат университети

Аннотация. Мазкур мақолада сўз турли вазиятлардаги инсонларнинг хулк-ахлоқ ва турли ижтимоий роллардан, фараз қилиш даражасидан келиб чиққан ҳолда уларнинг маданиятини акс эттирадиган ҳодиса мурожаат ҳақида боради.

Калит сўзлар. Миллий, мурожаат, индивид, тил, таъсир, этнос, қонун қоидалар, хулк-ахлоқ, турли, ижтимоий роль, маданий, оғзаки, ёзма, матн.

Маълум бир даврда пайдо бўлган маданий матнлар ўша даврга хос бўлган тилнинг ифодаланиш воситалари ва мафкуравий қонун-қоидаларни ўзида акс эттиради. Лингвомаданий вазият масаласига бағишланган тадқиқотлар олиб борган олимлардан А.В. Барашева, Г.Ю.Богданович, В.М. Шаклеин, Л.А.Кранышеваларни атаб ўтиш мумкин. Турли этник жамоа вакилларининг сўзлашув хулқи лингвомаданий ўзига хослик билан тавсифланади.

Стереотип вазиятлардаги хулк-ахлоқ турли ижтимоий роллардан ва инсонларнинг фараз қилиш даражасидан келиб чиққан ҳолда уларнинг маданиятида акс эттирилади ва сақланиб қолади. Ушбу ҳодисани В.П.Фурманова оғзаки ва ёзма матнни тушунишда юзага келадиган тўсиқлардан бири сифатида таъкидлайди [Фурманова 1993: 62]. Турли маданиятларнинг коммуникантлар ўзга лингвомаданият жамоалари вакилларининг сўзлашув хулқидан беҳабар ва ўзига хос маданий хулқи модусидан етарли даражада хабардор бўлганидан ҳар иккала миллат мулоқот қилишга бўлган катта қизиқишларига қарамай бир бирларини яхши тушуниб етмайди.

Миллий жамоа ва индивид тил атроф муҳитга таъсир кўрсатибгина қолмасдан, ҳар бир этноснинг қонун қоидалари ўзига хос ажралиб турадиган энг кичик лингвомаданий бирлик (лингвокультурема) ва лингвоидеологемалар асосида моделлаштиради. Лингвокультуремалар тил ва маданият бирликларининг мажмуаси сифатида акс этибгина қолмасдан, лингвомаданий таҳлилда асосий тасвирловчи бирлик ҳисобланади.

В.В.Воробьев лингвокультуремани тилларнинг ўзаро ва экстралингвистик мазмундаги ҳамдабириданикинчисига ўтувчилармаданият феноменларини ўзида мужассамлаштирган комплекс тарздаги даражалараро бирлик сифатида тушунтиради. [Т.Воробьев 1997: 27]. Лингвокультурема сўзи билан таққосланганида мазмунан мураккаброқ. Унинг таркибида сўзнинг тилдаги мазмуни, тилдан ташқари муҳит (реалиялар) ва маданий ореолни (маданий меъёр чегаралари) атаб ўтсак бўлади.

В.В.Воробьев томонидан лингвокультуремаларнинг асосий белгилари шакллантирилган [28]:

- 1) отни ифодалайди;
- 2) таркибга эга;
- 3) манбаалар жихатидан умумийлаштирилади.

Лингвокультурема лексема (сўз), сўз бирикмаси, абзац ёки бир нечта гап, матн ёки шеърларда акс этиб, мазмунан конкрет тарзда амалга оширилади. И.В.Харченкованинг фикрига қўшилган ҳолда, биз маълум бир маданий жамоа ва унинг маданий мероси томонидан аниқ белгиланган ва тил майдони билан (майдони билан) чегараланган функционал модель сифатида ҳам ўрганилиши мумкин.

Когнитив ёндашув нуқтаи назаридан В.В.Воробьев лингвокультуремани алоҳида микрофрейм – яъни лексик маънога эга бўлган тил шаклида акс эттирилган маданият ҳақидаги билимлар блоги сифатида қарашни таклиф этади. Лингвокультуреманинг когнитив таркиби унинг мазмуни асосини куради, ҳамда унинг лингвомаданий майдонининг тузилиши эса микрофреймлар сифатида унинг таркибини белгилаб берувчи бутун бир лингвокультурема тизимини ёритишга ёрдам беради.

Мазмуни жихатидан бир бирига яқин бўлган, умумий, алоҳида ва бирламчи синтез сифатидаги лингвокультуремаларнинг кўп даражали тузилишини лингвомаданий майдон деб аташади. Сўзларнинг хилма хил турлари лингвомаданий маълумотларга эга, улар:



топонимлар, турмуш реалияларининг оғзаки атамалари, жаргонизмлар, паремиялар, кўча риторикаси намуналари, фразеологизмлар.

В.М.Шаклеин эътиборини тингловчи томонидан унинг луғавий изоҳланишида лингвокультуремаларнинг тўғри қабул қилиниши учун тилнинг ўзига хос маданий анъаналарини инобатга олиш кераклигига қаратади. [Шаклеин 1997].

Мисол учун, «home» ва «уй» сўзларини таққослаб, шуни таъкидлаш лозим, яъни инглизларда ушбу тушунча биринчи навбатда улар «яшаб турган жой» билан боғлиқ, ўзбекларда эса – «оила» тушунчаси билан боғлиқ. Шунинг учун ҳам шундай гапиришади: «Мен уйга кетаяпман», инглизлар эса: «I am going home» дейишади. Инглиз тилидаги «café» (кафе)да тушлик қилишнинг иложи йўқ, чунки «café» – бу қаҳва, чой ва алкоголь ичимликлари истеъмол қилинадиган стол ҳамда стул қўйилган жой сифатида тушунилади. Лингвомаданий майдонни шакллантириш – лингвокультуремаларнинг мазмунини олиб юрувчиларни атамаларни топиш, уларнинг мантикий-семантик занжир билан боғланган «сўзлик мозаикасини» йиғиш ва семантик жиҳатдан тўлдирилишида умумий ва ўзига хос ажралиб турувчи аломатларни аниқлаш натижасида юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Беликов В.И. Крысин Л.П. Социоллингвистика.-Москва.2001,-с196-202
2. Гойхман О.Я. Надена.Т.М. Речевая коммуникация.-Москва-2001,с.191
3. Куница В.Н. Межличностное общение.- СПб,2002, с.56-57,415-421
4. Формановская Н.И. Речевое Взаимодействие : коммуникация и прагматика , -Москва .2007,-с152-183, 193-218, 235-254



ТИЛШУНОСЛИКДА «МАЙДОН» ТУШУНЧАСИ ХАҚИДА

Бозорбеков Ахмадбек

АДУ. Педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада сўз “майдон” тушунчасининг пайдо бўлиши ҳақида боради. Турли авлодлар, миллий мактаблар ва тенденцияларга мансуб тадқиқотчилар «майдон» атамасини турлича изоҳлайдилар, аммо бу фундаментал назарий характердаги фарқлардан кўра ушбу муаммони ишлаб чиқишда бошқача тажриба борлигини кўрсатади.

Тил ҳодисаларини тизимли ташкил этишнинг майдон принципи концепцияси ҳақли равишда XX аср тилшунослигининг энг муҳим ютуқларидан бири ҳисобланади. “Майдон” тушунчасининг пайдо бўлиши тилни мураккаб, доимий ўзгарувчан ва ривожланиб боровчи механизм бўлган тизим сифатида таърифлаш билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, у назарий жиҳатдан И.А. Бодуэн де Куртенэ ва Ф. Де Соссюр томонидан асосланган.

Кўпгина хорижий ва маҳаллий тилшунос олимлар ўз асарларида тилнинг мураккаб тизим эканлигини таъкидлайдилар (Кристал, Блох, Алефиренко). Маълумки, тил тизими ўзаро боғлиқлик ва ўзаро таъсирда бўлган тил birlikлари томонидан яратилади. А.А. Гируцкий таъкидлаганидек, “Тил тафаккур ва мулоқот курули, биринчи навбатда, сўзлар тизими сўзларнинг ўзаро таъсири жараёнида шаклланиб, ўзининг яхлитлиги ва тўлиқлигига эга бўлади” [4, б. 109]

Ҳозирги вақтда луғатнинг тизимли ўрганиш тилшунос олимларда катта қизиқиш ўйғотмоқда ва майдон структураси методи ёрдамида амалга оширилмоқда.

Луғат таркибига майдон ёндашуви ярим асрдан ортиқ ривожланиш тарихига эга. Турли авлодлар, миллий мактаблар ва тенденцияларга мансуб тадқиқотчилар «майдон» атамасини турлича изоҳлайдилар, аммо бу фундаментал назарий характердаги фарқлардан кўра ушбу муаммони ишлаб чиқишда бошқача тажриба борлигини кўрсатади. Майдон назарияси асосчилари Г.С. Шур, немис олимлари Г. Ипсен ва Ж. Трирлардир.

Семантик майдон тушунчаси Г. Ипсен асари нашр этилгандан кейин кенг тарқалди ва у ерда умумий маънога эга бўлган сўзлар йиғиндиси сифатида таърифланди. И.Трир «лексик майдон» ва «концептуал майдон» тушунчаларини ажратиб, бу атамаларни лингвистик фойдаланишга киритди.

Ж.Трир “майдон” атамасининг ўзини ҳисобга олиб, майдонлар бир сўз ва бутун луғат ўртасида мавжуд бўлган лингвистик воқелик эканлигини айтади. Шунингдек, у майдонлар бутуннинг бир қисми эканлигини ва улар каттароқ birlikларга бирлаштирилган маънода сўзларга ўхшашлигини таъкидлайди [1, 22-бетлар].

Майдонни структуралаш усули турли талқин ва ёндашувларга эга. Лингвистик луғат ва энциклопедияларда соҳага қуйидаги таърифлар берилган. Шундай қилиб, О.С. Ахманова соҳани «инсон тажрибасининг маълум бир соҳасини қамраб оловчи маъноли birlikлар (тушунчалар, сўзлар) тўплами» деб таърифлайди [2, 34-бет].

А.М. Кузнецов, майдон деганда умумий мазмун (баъзан умумий расмий кўрсаткичлар билан) билан бирлаштирилган ва белгиланган ҳодисаларнинг концептуал, предмет ёки функционал ўхшашлигини акс эттирувчи лингвистик (асосан лексик) birlikлар йиғиндиси тушунган [6, б.380].

И.В. Арнольд «майдон» тушунчасини қуйидагича таърифлайди “Майдонлар – бу бир сўз ва умумий луғат ўртасида мавжуд бўлган лингвистик воқеликдир; улар бир бутуннинг бўлаклари бўлиб, қандайдир юқори birlikка бирикиши билан сўзларга, кичикроқ birlikларга ажралиши билан луғат таркибига ўхшайди” [1, 28-б.]. В.Г. Адмоний талқинида, И.В. Арнольднинг сўзларига кўра, майдон тизимли муносабатлар билан боғланган элементларнинг инвентаризацияси мавжудлиги билан тавсифланади.

В.Т. Адмоний майдоннинг марказий қисмида - ядрони кўради, унинг элементлари ушбу гуруҳлашни белгилайдиган хусусиятларнинг тўлиқ тўпламига эга ва периферия, унинг элементлари майдонга хос бўлган барча хусусиятларга эга эмас, балки қўшни майдонларга хос хусусиятларга ҳам эга бўлиши мумкин. Бундай қўшни майдонлар бир нечта бўлиши мумкин. Шундай қилиб, майдоннинг тузилиши бир хил эмас. Ядродан узоқлашганда, доминант белгилар заифлашади. Қўшимча функциялар пайдо бўлади [1, с.140].



А. Кузнецов «майдон» муаммоси ҳақидаги қарашларини луғат мақоласида батафсилроқ баён қилади, у ерда майдонни «умумий таркиб билан бирлаштирилган лингвистик (асосан лексик) бирликлар тўплами (баъзан умумий расмий кўрсаткичлар билан ҳам) ва концептуал, асосли ёки функционал белгиланган ҳодисаларнинг ўхшашлиги» [2, с. 38].

Ю.Н. Власов ва А.Я. Загоруйко сўз ясалиш соҳасини нутқнинг маълум бир қисмидаги сўзларни шакллантиришда иштирок этадиган усуллар тўплами сифатида тушунади. Сўз ясалиш усулларининг ҳар бири улар томонидан микромайдон сифатида қаралади. Сўз ясалиш соҳаси таркибида ўзак ва периферия фарқланади. Ядро нутқнинг маълум бир қисмидаги энг кўп сонли сўзларни ўз ичига олган микро майдонларни ўз ичига олади. Периферияда ядродан ҳар хил масофада жойлашган микромайдонлар жойлашган [3, 10-б.].

Воронеж мактаби вакиллари майдонлар назариясини ривожлантиришга алоҳида ҳисса қўшдилар. Ушбу тилшунос олимларга эргашиб, биз соҳаларни «ҳар қандай тизимга хос бўлган алоқа ва муносабатларга эга ва шу билан бирга ўзига хос хусусиятларга эга бўлган тизимли шаклланишлар» деб ҳисоблаймиз.

Майдон ўзига хос тузилишга эга - ядро - периферия - бу ядрога майдон ҳосил қилувчи хусусиятларнинг максимал концентрацияси ва бу хусусиятларнинг тўлиқ бўлмаган тўплами билан уларнинг перифериядаги интенсивлигининг мумкин бўлган заифлашиши билан тавсифланади.

Майдоннинг яна бир муҳим характеристикаси - бу умумий сегментлар, семантик ўтиш зоналари шаклланишига олиб келадиган алоҳида майдонларнинг кесишиш имконияти.

Ядродан периферияга ўтиш ҳам аста-секин амалга оширилади, ядродан турли даражада узокда жойлашган бир қатор периферик зоналар ажралиб туради.

Кўриниб турибдики, соҳалар ҳар қандай тизимга хос бўлган боғланиш ва муносабатларга эга бўлган ва шу билан бирга ўзига хос хусусиятларга эга бўлган тизимли шаклланишдир [3.88-бетлар]. Юқоридаги таърифлардан кўриниб турибдики, тилшунослар тилнинг турли ҳодисаларини ўрганадилар, бундан келиб чиқиб, соҳаларнинг турлича талқинларини тадқиқ қиладилар.

Шундай қилиб, юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда, биз соҳани ушбу тушунчани ифодаловчи умумий семантик хусусиятга эга бўлган гетероген ўзаро таъсир қилувчи элементлар тўплами сифатида кўриб чиқишимиз мумкин. Бундай ҳолда, семантик майдон атамасини қўллаш бизга энг тўғри кўринади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Kuptsova A.K. Interpretation (Economics and business). English language. M., 2013. - P.100.
2. Leichik V.M. Terminology: subject, methods, structure. M., 2006. - S. 96.
3. Smirnitky A.I. Lexicology of the English language. M.: MGU, 1998. - S. 17.
4. Sergeeva V.I. Corporate logistics. 300 answers to professional questions. M., 2004. - S. 96.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000